ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2023

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2023-yil 26-iyul, 224-son buyrug‘i 4**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2023-yilda amalga oshiriladigan asosiy vazifalar to‘g‘risida”gi **2023-yil 14-avgust, 240-son buyrug‘i 6**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida”gi **2023-yil 14-avgust, 241-son buyrug‘i 12**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 2-avgustdagi 02-PA 1/1-1067-son topshirig‘i ijrosi haqida”gi **2023-yil 16-avgust, 246-son buyrug‘i 26**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi **2023-yil 16-avgust, 248-son buyrug‘i 32**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Umumiy o‘rta ta’lim maktabining namunaviy Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2023-yil 18- avgust, 250-son buyrug‘i 34**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2023-yil 18-avgust, 253-son buyrug‘i 55**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga o‘qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2023-yil 23- avgust, 258-son buyrug‘i 64**

O‘zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan dav-

lat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida''gi **2023-yil 26 avgust, 266-son buyrug'i 73**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimiga ochiq tanlov o'tkazish tartibini tasdiqlash haqida''gi **2023-yil 29-avgust, 269-son buyrug'i 75**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Umumiy o'rta ta'lim muassasalari Direktorlar kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 270 -son buyrug'i 76**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni tayyorlov o'quv kurslari bitiruvchilariga sertifikatlarini berish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 271-son buyrug'i..... 78**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida yong'in-texnikkomissiyasi va ko'ngilli yong'indan saqlash drujinasini tashkil etish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 272-son buyrug'i . 80**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida yong'in xavfsizligini ta'minlash to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 273-son buyrug'i 88**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 274-son buyrug'i..... 90**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 275-son buyrug'i 109**



O'zbekıston respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının ''Shahodatnoma blankalarini hisobdan chiqarish to'g'risida''gi **2023-yil 29-avgust, 276-son buyrug'i 111**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni, “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son va “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008-yil 7-avgustdagi 173-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi 2-ilovaga muvofiq;

ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, qoraqalpoq) tilida bo‘lgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslik fanlari ro‘yxati va 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar, viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan namuna-

viy o‘quv rejalarini hududdagi barcha ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yetkazish;

2023-2024-o‘quv yilida o‘quv jarayonini ushbu o‘quv reja asosida tashkil etish vazifalari topshirilsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining oddiy sinflarida o‘quv jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 15-maydagi 125-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan tayanch o‘quv reja asosida tashkil qilinadi.

4. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2023-2024-o‘quv yilida ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ushbu o‘quv rejalar asosida ta’lim berish jarayonini muvofiqlashtirib borsin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 17-iyundagi 199-sonli buyrug‘i 2023-yil 1-avgustdan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 26-iyul,
224-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2023-yilda amalga oshiriladigan asosiy vazifalar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2022-yilda bajarilgan ishlar yakuni va 2023-yildagi asosiy vazifalar to‘g‘risida” 2023-yil 6-yanvardagi 1-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda 2023-yilda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarning oldini olish, sodir bo’lganda ularni zudlik bilan bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarini ko’rish, shuningdek, tizimdagi rahbar va mas’ul xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2023-yildagi asosiy tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda - asosiy tadbirlar rejasi) 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hududiy boshqarmalari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalari xodimlarini Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida 2023-yil uchun o‘qitish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis (X. Xamidov):

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari bilan birgalikda asosiy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida, sifatli ta’minlasin;

asosiy tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarini sifatli tashkillashtirish va bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan doimiy ravishda yaqindan hamkorlik olib borish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha davlat tizimiga kiruvchi boshqaruv organlarini tayyorlash bo‘yicha tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalarda belgilangan muddatlarga asosan hisobot va tahliliy ma’lumot hujjatlarini Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etish;

favqulodda vaziyatlarda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi obyektini barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlariga:

xodimlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash hamda favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi tabiiy-texnogen jarayonlar va hodisalarning oldini olish bo‘yicha ichki direktiv hujjatlarni qabul qilish;

favqulodda vaziyatlar boshqarmalari bilan kelishilgan holda favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi tabiiy-texnogen jarayonlar va hodisalarning oldini olish bo‘yicha asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, rejalashtirilgan tadbirlarning sifatli bajarilishini ta’minlash;

xodimlarini Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida 2023-yil uchun o‘qitish rejasiga muvofiq tinglovchilarni o‘qitish bo‘yicha zarur sharoitlarni yaratish;

amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni belgilangan muddatlarda vazirlikning Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandisiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T. Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 14-avgust,
240-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 14-avgustdagi
240-son buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2023-yildagi asosiy tadbirlar REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish uchun mas’ul	O‘tkazish vaqti
	“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish	Vazirlikning Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis, Hududiy boshqarmalar boshliqlari, tashkilotlar va muassasalar direktorlari	kuz mavsumida
	“Yosh qutqaruvchi” ko‘ngilliliar o‘rtasida “Eng yaxshi klub” tanlovining hududiy va respublika bosqichlarini o‘tkazish.	Vazirlikning Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar boshliqlari, tashkilotlar va muassasalar direktorlari	sentabr - dekabr
	Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-apreldagi 299-sonli qarori asosida “2015-2030-yillarda ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha Senday hadli dasturi”da belgilangan tadbirlarni tashkil etish va tahlilini yuritish.	Vazirlik va hududiy boshqarmalar boshliqlari, tashkilotlar va muassasalar direktorlari	yanvar-noyabr Yillik tahlil 30-dekabrgacha

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish uchun mas'ul	O'tkazish vaqti
	Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-sonli qaroriga asosan, xodimlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga doir tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish.	Vazirlik va hududiy boshqarmalar boshliqlari, tashkilotlar va muassasalar direktorlari	avgust - sentabr
	"Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni"ga bag'ishlab "O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish oqibatlarini kamaytirish masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	13-oktabr
	Yozgi bolalar dam olish oromgohlarida favqulodda vaziyat (yong'in)lardan muhofaza qilish borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	avgust
	Hududiy boshqarmalar, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbar hamda mutaxassislarni O'R FVVning Fuqaro muhofazasi institutida o'qitilishini nazoratga olish.	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Mehnatni muhofaza qilish bo'limi bo'yicha muhandis	O'R Fuqaro muhofazasi boshlig'ining buyrug'iga asosan
	O'R Vazirlar Mahkamasining 369-son qarorida belgilangan normalar asosida fuqaro muhofazasi mulklarini sotib olish (fuqaro muhofazasi tuzilmalari shaxsiy tarkibiga himoya vositalari gaz niqob, asbob-anjomlar va boshqalar).	Mehnatni muhofaza qilish bo'limi bo'yicha muhandis, Moliya-iqtisod departamenti direktori, Davlat xaridlarni tashkil etish bo'limi	2024-yil
	Boshpanalar, pana joylar, evakuatsiya joylari va shuningdek, fuqaro muhofazasi mulklarining shayligini nazorat qilish.	Xo'jalik bo'limi, Mehnatni muhofaza qilish bo'limi bo'yicha muhandis, \Hududiy boshqarmalar boshliqlari, tashkilotlar va muassasalar direktorlari	yil davomida

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 14-avgustdagi 240-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar xodimlarini Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida 2023-yil uchun o‘qitish

REJASI

T/r	Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar	Soni	O‘qish muddatlari	Tinglovchilar
1	Jizzax viloyati MMTB	1	Avgust	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari fuqaro muhofazasi mas‘ul xodimlari
2	Surxondaryo viloyati MMTB	1		
3	Toshkent viloyati MMTB	1		
4	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	1		Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis
5	Xorazm viloyati MMTB	1	Sentabr	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari
6	Farg‘ona viloyati MMTB	1		
7	Andijon viloyati MMTB	1		
8	Qoraqalpog‘iston Respublikasi MMTV	1	Oktabr	
9	Samarqand viloyati MMTB	1		
10	Buxoro viloyati MMTB	1		

T/r	Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar	Soni	O'qish muddatlari	Tinglovchilar
11	Qashqadaryo viloyati MMTB	1	Noyabr	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari fuqaro muhofazasi mas'ul xodimlari
12	Navoiy viloyati MMTB	1		
13	Sirdaryo viloyati MMTB	1		
14	Namangan viloyati MMTB	1	Dekabr	Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari fuqaro muhofazasi mas'ul xodimi
15	Toshkent shahri MMTB	1		Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi fuqaro muhofazasi mas'ul xodimi
16	Vazirlik tasarrufidagi tashkilot	1		Ixtisoslashtirilgan maktablar agentligi fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida” 2022-yil 28-dekabrdagi SQ-682-IV-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - Maslahat kengashi) 1-ilovaga muvofiq;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashining 2023-yil ikkinchi yarim yillikda o‘tkaziladigan mavzular bo‘yicha namunaviy ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maslahat kengashi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ish olib borishi belgilansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlari bir hafta muddatda mazkur buyruq asosida hududiy Maslahat kengashi tarkibini tasdiqlasin va nizom talablariga muvofiq faoliyatini yo‘lga qo‘yilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 28-may “Xalq ta’limi vazirligida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlash masalalari bo‘yicha

Maslahat kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 132-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.

Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 14-avgust,
241-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 14-avgustdagi
241-son buyrug’iga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashi
TARKIBI

1.	D. Kenjayev	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, Maslahat kengashi raisi
2.	N. Mamaraimova	-	Vazir maslahatchisi, a’zo
3.	A. Kamalov	-	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo
4.	X. Asrorov	-	Yuridik boshqarma boshlig‘i, a’zo
5.	Z. Togayeva	-	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
6.	L. Gaynutdinova	-	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a’zo
7.	N. Kuchkarova	-	Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
8.	K. Ismoilova	-	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib

Izoh: Maslahat kengashi tarkibi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 14-avgustdagi
241-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashining 2023-yil ikkinchi yarim yillikda o‘tkaziladigan mavzular bo‘yicha namunaviy ISH REJASI

T/r	Tadbir nomi	O‘tkazish muddati	Mas’ullar
I. Xodimlarni huquqiy madaniyatini oshirishga qarati gan targ‘ibot tadbirlari			
1.	Amaldagi qonun va qonunosti hujjatlar, qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni xodimlarga yetkazib borish maqsadida o‘quvlar tashkil etib borish.	har chorak	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
2.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlariga oid qonunchilikka o‘zgartirish kiritish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish.	yil davomida	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
3.	Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish. Himoya orderida ko‘rsatilgan imkoniyatlar haqida tushuntirish ishlarini olib borish.	har chorak	Respublika tashxis markazi
4.	Xodimlarni ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq imtiyozlar to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish.	yil davomida	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
II. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar			
5.	Mehnat ta’tilidagi xodimlarni turli dam olish sihatgohlariga yuborish.	reja asosida	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi, Kasaba uyushmasi boshlang‘ich tashkiloti
6.	Muhim sanalar va bayramlarga bag‘ishlangan ko‘rik-tanlovlar o‘tkazib borish.	yil davomida	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi

7.	Xodimlarni intellektual salohiyatini rivojlantirishga maqsadida ular o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yinini o‘tkazish.	reja asosida	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
III. Ommaviy sport tadbirlari			
8.	“Sport – nafislik va salomatlik manbai” shiori ostida sportning shaxmat, shashka, voleybol, badminton, stol tennis musobaqalarini tashkil etish.	reja asosida	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo’limi
9.	“Sog‘lom hayot” shiori ostida yugurish marafonlarini o‘tkazib borish	reja asosida	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo’limi

Davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maslahat-kengash organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga ko'maklashish bo'yicha maslahat-kengash organlari (keyingi o'rinlarda Maslahat-kengashi)ning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Maslahat-kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida mehnat jamoalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish, jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etishda ko'maklashish maqsadida davlat organi rahbarining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

3. Davlat organlarining hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarida alohida maslahat-kengashlari tuziladi, ularning faoliyati mazkur namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqilgan nizom asosida amalga oshiriladi va bu borada jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

4. Maslahat-kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-kizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan gender tenglik va oila masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu nizom asosida amalga oshiradi.

5. Maslahat-kengashi qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, insonparvarlik, vatanpavarlik ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida faoliyat olib boradi.

2-bob. Maslahat-kengashining asosiy vazifalari va funksyalari

6. Quyidagilar Maslahat-kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat organining vakolati doirasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;

Davlat organi nomidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini o‘rganish va bartaraf etilishga ko‘maklashish, oilalaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhitini yaxshilash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligini, huquqiy, ma’naviy, intellektual bilimlarini oshirish sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

Davlat organida jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni va axborotni muntazam ravishda yig‘ishni hamda tahlil qilishni ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularni tiklash bo‘yicha choralar ko‘rishda ishtirok etish;

xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta’minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirishda ko‘maklashish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha fuqarolarning madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rishda ko‘maklashish;

davlat organi nomidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni amalga oshirishga faol jalb qilish maqsadida ular bilan ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish;

xotin-qizlar va erkaklar kasbiy va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi, xavfsiz, qulay va munosib mehnat sharoitlarining yaratishda, shu jumladan ham onalarga, ham otalarga bola parvarishi uchun ta’til berish orqali shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha davlat organlari tegishli mutasaddilarga taklif va tavsiyalar berish;

Davlat organlarining gender siyosatini amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha axborot-ma’rifiy tadbirlarni rag‘batlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etish;

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy va boshqa ichki me’yoriy hujjatlarni Yuridik boshqarma tomonidan huquqiy (gender-huquqiy)

ekspertizadan o‘tkazishda manzilli ishtirokini ta’minlash;

davlat organida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha berilgan imtiyozlarning yaratilganlik holatini o‘rganish va uning natijalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

faoliyat jarayonini gender tenglik nuqtayi nazaridan monitoring qilish va baholashda faol ishtirok etish;

ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o‘tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda ish beruvchi tomonidan gender genglik asosida vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda ishtirok etish;

rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas’uliyatli ayollar va erkaklar nomzodlarini tavsiya qilinishini ta’minlash;

xodimlarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarining buzilishiga doir murojaatlarni ko‘rib chiqishda mutasaddi tizim xodimlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

xodimlarning ish joyidagi zo‘ravonlikning turli shakllariga barham berish, kam ta’minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, imkoniyati cheklangan, nogiron erkak va xotin-qizlarga har tomonlama ko‘maklashish choralarini ko‘rish;

mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta’minlash, mehnat munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ishga joylashtirish, mehnat faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida erkak va ayollar bandligini ta’minlashda imkoniyatlar yaratish, kasbiy salohiyati va mehnat faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirib borish uchun shart-sharoitlarini yaratish, malakasini oshirishda ko‘maklashish;

bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish xaqi va unga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlar teng to‘lanishini monitoring qilish;

gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha boshqa vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari shuningdek, o‘rnatilgan tartibda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Maslahat-kengashi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish maqsadida asosiy faoliyat yunalishlari sifatida qonunda taqiqlanmagan boshqa chora-tadbirlarni belgilashi hamda amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Maslahat-kengashining huquq va majburiyatlari

7. Maslahat-kengashi asosiy vazifa va funksiyalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatlari doirasida davlat organidan kerakli hujjatlarni, sta-

tistik va tahliliy ma’lumotlarni so‘rab olish va qabul qilish;

Davlat organi rahbari bilan kelishilgan holda o‘tkaziladigan yig‘ilishlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xodimlar hamda ularning oila a’zolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish;

xodimlarning roziligi bo‘yicha ularning ishlash va yashash shart-sharoitlari bilan tanishish;

Davlat organining hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlariga Maslahat-kengashi vakolatiga tegishli masalalar bo‘yicha takliflar kiritish;

Davlat organining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash yuzasidan davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarini ishlab chiqishda takliflar berish;

Davlat organida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy va boshqa ichki normativ hujjatlari loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tarkibiy bo‘linmalardan so‘rab olish;

ichki idoraviy hujjatlarni tahlil qilish orqali aniqlangan gender tengsizlikni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va tegishli tarkibiy bo‘linmalar yoki Yuridik boshqarmaga taqdim etish;

maslahat-kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

vazirlik tarkibiy va hududiy bulinmalaridan maslahat-kengashi faoliyati uchun zarur bo‘lgan axborotlarni, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga vazirlik tomonidan berilgan javoblarda gender tenglik talablariga rioya qilinganligini tahlil qilish;

maslahat-kengashi yig‘ilishlarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish buyicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

maslahat-kengashiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun milliy va xalqaro konferensiyalar, forumlar, seminarlar, uchrashuvlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish va ularga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilish, shuningdek, ular bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil qilish;

Maslahat-kengashi o‘z faoliyatini amalga oshirishda:

Vazirlik va idoralar faoliyati bilan bog‘liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

vazirlik va idoralar hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘sqinlik qilmasligi;

gender tenglik asosida fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l quymasligi;

faoliyatini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo‘lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Maslahat-kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar va huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

8. Maslahat-kengashi o‘z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amalsh qilish;

Davlat organining mustaqilligi va uning ishiga aralashmaslik tamoyillariga qat’iy rioya qilish;

Maslahat-kengashi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur yo‘nalish doirasida boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Maslahat kengashining tarkibi

9. Maslahat-kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari kotib va a’zolar kiradi. Maslahat kengashi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradi.

Maslahat-kengashi tarkibi davlat organi xodimlari, tashkilotlar subyektlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining vakillari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillaridan iborat tarkibda (9 nafargacha) shakllantiriladi.

Maslahat-kengashining a’zolari davlat organi rahbarining buyrug‘i bilan ko‘ngilli ravishda muayyan muddatga tarkibga kiritiladi va a’zolikdan chiqariladi.

Maslahat-kengashi raisi lavozimini bajarish (rahbarlik qilish) davlat organi rahbari o‘rinbosarlaridan birining zimmasiga yuklatiladi.

10. Maslahat-kengashi raisi Maslahat-kengashi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

davlat organi faoliyatining tegishli sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash prinsiplariga rioya etilishini ta’minlaydi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash holatini tahlil qiladi, gender siyosati amalga oshirilishini

ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar qo‘llanilishining maqsadga muvofiqligini o‘rganadi hamda ularni qo‘llash to‘g‘risida takliflar kiritadi;

jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga barham berish yuzasidan axborot faoliyatini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda doimiy asosda amalga oshiradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasida gender ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi, monitoring ishlarini olib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqadi, tahlil qiladi hamda zarur hollarda ular haqida vakolatli organlarga xabar beradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha xodimlarning kasbiy darajasini oshirish choralarini ko‘radi;

jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishning namoyon bo‘lish faktlarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko‘radi;

Maslahat-kengashi majlisini chaqirish va kun tartibini belgilash;

Maslahat-kengashi majlisiga raislik qilish;

Maslahat-kengashining ish rejasi, Maslahat-kengashi majlisining bayonnomasi va Maslahat-kengashining ish yurituviga oid boshqa hujjatlarni tasdiqlash;

Maslahat-kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

Maslahat-kengashi a’zolarining ularga qo‘yilgan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat organi rahbariyatiga Maslahat-kengashi tarkibiga a’zolarni kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish bo‘yicha takliflarni taqdim etish;

qonun hujjatlari va Maslahat-kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

11. Maslahat-kengashi raisi yo‘qligida uning vakolat va vazifalarini Maslahat-kengashi raisining o‘rinbosari amalga oshiradi.

12. Maslahat-kengashi raisining o‘rinbosari:

Maslahat kengashi raisi bo‘lmaganda maslahat-kengashi majlislariga raislik qiladi;

Maslahat-kengashi qarorlari bajarilishini nazorat qilish ishlarini tashkil etadi.

13. Maslahat-kengashi kotibi:

Maslahat-kengashining majlisiga kerakli hujjatlar o‘z vaqtida tay-

yorlanishini ta’minlaydi;

Maslahat-kengashi majlisining kun tartibi bo‘yicha o‘tishini tashkil etadi;

Maslahat-kengashi raisi bilan majlis o‘tkazish muddati, joyi hamda taklif qilinuvchilar haqida maslahatlashadi;

Maslahat-kengashi a’zolari va taklif qilingan shaxslarni majlis o‘tkazish joyi, sanasi va vaqti haqida xabardor qiladi;

Maslahat-kengashi qarorlarining bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalarini Maslahat-kengashi majlisida ko‘rib chiqish bo‘yicha rahbariyatiga taklif kiritadi;

Maslahat-kengashi bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan bayonnomani Maslahat-kengashi a’zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta’minlaydi;

qonun hujjatlari va Maslahat-kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14. Maslahat kengashi a’zolari:

Maslahat-kengashi majlislarida ko‘riladigan masalalarni hal qilish va muhokama qilishda o‘z vakolatlarini berish huquqisiz qatnashadilar. Maslahat-kengashi a’zolari ayrim hollarda Maslahat-kengashi majlislarida qatnasha olmagan taqdirda o‘z fikrlarini yozma tarzda Maslahat-kengashi kotibiga taqdim etishlari mumkin. Ko‘rsatib o‘tilgan fikrlar majlisda ko‘rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha davlat organi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar.

Xodimlar va ularning oila a’zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Maslahat-kengashiga taklif kiritadilar.

4-bob. Maslahat kengashi faoliyatini tashkil etish

15. Maslahat-kengashining faoliyati ushbu Nizom asosida amalga oshiriladi.

16. Maslahat-kengashi faoliyatining asosiy masalalari Maslahat-kengashi majlislarida ko‘rib chiqiladi. Maslahat-kengashi majlisi Maslahat-kengashining ish rejasi asosida har chorakda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Maslahat-kengashi raisi Maslahat-kengashi a’zolarining kamida uchdan bir qismining yozma murojaati asosida navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

17. Maslahat-kengashi majlisining kun tartibi loyihasi Maslahat-kengashi a’zolarining takliflari va Maslahat-kengashi raisi top-

shirig‘i asosida Maslahat kengashi kotibi tomonidan shakllantiriladi.

18. Maslahat-kengashi majlislari uning raisi tomonidan olib boriladi. Rais ishtirok eta olmagan hollarda majlisga uning o‘rinbosari raislik qiladi.

Maslahat-kengashi majlislarida davlat organi rahbari, uning o‘rinbosarlari yoki boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

19. Maslahat-kengashi majlisi unga taklif qilingan shaxslarning uchdan ikki qismidan kam bo‘lmagan qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

Agar majlis olib borish uchun kvorum shakllanmasa, Maslahat-kengashining yangi majlis o‘tkazish sanasi e’lon qilinadi.

20. Maslahat kengashining qarori uning majlisida qatnashayoggan a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar ovozlar teng kelib qolsa, Maslahat-kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

21. Maslahat-kengashi qaror qabul qilishda masalalarni erkin muhokama qilish, ovoz berish, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tenglik va kollegiallikka asoslanadi.

22. Maslahat-kengashining har bir a’zosi qabul qilingan qarorga o‘zining fikrlarini yozma tarzda bildirish huquqiga ega. Bunda fikrlar Maslahat-kengashi majlisi bayonnomasiga kiritib qo‘yiladi.

23. Maslahat-kengashining qarori qabul qilingan kundan boshlab uch kun ichida davlat organi rahbariga kiritiladi.

Maslahat-kengashining qarori tavsiyaviy xarakterga egadir. Agar qaror davlat organi rahbari tomonidan ma’qullanmasa, davlat organi qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘n kundan kechikmasdan Maslahat-kengashiga asoslantirilgan javobini taqdim qiladi.

24. Tezkor qaror qabul qilish zarurati kelib chiqqanda, Maslahat-kengashining qarori Maslahat-kengashi raisi tashabbusi bilan Maslahat-kengashi a’zolari bilan maslahatlashilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

25. Maslahat-kengashi majlisida qabul qilingan qaror majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Maslahat-kengashi kotibi tomonidan imzolanadi, majlisga raislik kiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch kunlik muddatda Maslahat kengashi a’zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

26. Maslahat-kengashi kotibi Maslahat-kengashi a’zolari bilan birgalikda Maslahat-kengashi qarorlarini ijro etish yo‘llarini tizimli ko‘rib chiqadi, zarur hollarda Maslahat-kengashi raisiga takliflar kiritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

27. Maslahat-kengashining moddiy-texnik ta’minoti davlat organi tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

28. Maslahat-kengashi faoliyati ustidan nazoratni davlat organi rahbari amalga oshiradi.

29. Maslahat-kengashining qarorlari hamda davlat organi rahbarining Maslahat-kengashi faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 2-avgustdagi 02-PA 1/1-1067-son topshirig‘i ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 2-avgustdagi 02-PA1/1-1067-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 2-avgustdagi 02-PA 1/1-1067-son topshirig‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin (ilova qilinadi).

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga biriktirilgan:

“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2023-yil 1-ochiq stipendiya tanlovining g’oliblar ro‘yxati 1-ilovaga;

“El-yurt umidi” jamg‘armasi hisobidan xorijda ta’lim olib qaytgan va vazirlik tizimidagi tashkilot va muassasalarda mehnat faoliyati olib borayotgan mutaxassislar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq taqsimlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (N. Kuchkarova), Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi (L. Xo‘jaqulov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A. Ubbiyev) “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2023-yil 1-ochiq stipendiya tanlovi g‘oliblari bilan har chorakda onlayn uchrashuvlar tashkil etilsin hamda vakolati doirasida ularga kerakli tavsiya va amaliy yordam berib borilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari 2-ilovaga binoan “El-yurt umidi” jamg‘armasining ta’lim dasturlari asosida xorijda tahsil olib, qaytib kelgan stipendiatlarning:

bilim va tajribalaridan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish hamda ularni munosib ish bilan ta’minlash hamda ularning mehnat samaradorligiga ko‘ra rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

kasbiy o‘sishini, shuningdek, zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan liderlarini istiqbolli kadrlar zaxirasi tarkibiga kiritilishi

ta’minlash;

har chorakning yakuni 25-sanasidan kechikmay vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga yozma ma’lumot taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2023-yil 1-ochiq stipendiya tanlovi g‘oliblarining o‘qish hamda xorijda ta’lim olib qaytgan, vazirlik tizimidagi tashkilot va muassasalarda mehnat faoliyati olib borayotgan bitiruvchilar faoliyatini doimiy monitoring qilib borsin.

6. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni uch kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 16-avgust,
246-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 16-avgustdagi 246-son buyrug‘iga
1-ilova

“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2023-yil 1-ochiq stipendiya tanlovida g‘olib bo‘lib, xorijga ta’lim olishga yuborilayotgan stipendiatlarning Toshkent shahar va hududiy boshqarmalar boshliqlariga biriktirilishi to‘g‘risida ma’lumot

№	Stipendiatning F.I.Sh, yashash joyi	Ta’lim dasturi	O‘qishi kutilayotgan davlat va ta’lim sohasi	Universitet nomi	Mutaxassislik nomi	Hududiy boshqarma boshlig‘i (F.I.Sh)
1	Abdumurodova Mo’tabar Arziqul qizi, **Surxondaryo viloyati**	Bakalavriat	AQSh, ta’lim	University of Arizona	Matematika	Surxondaryo viloyati (H. Mamadiyev)
2	Abduraximova Yulduz Muzaffarovna, **Toshkent shahar**	Bakalavriat	AQSh, ta’lim	University of Minnesota	Psixologiya	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik- pedagogik respublika tashxis markazi (L. Gaynutdinova), Toshkent shahar (N. Husanboyeva)
3	To‘ychieva Gulyora Elyor qizi, **Namangan viloyati**	Bakalavriat	AQSh, tillar	University of Missouri	Tilshunoslik	Namangan viloyati (O. Zokirov)
4	Haydarova Firuzabonu Shuxrat qizi, **Jizzax viloyati**	Bakalavriat	AQSh, ta’lim	University of Minnesota	Boshlang‘ich ta’lim	Jizzax viloyati (S. Suyarova)

5	Tursunova Dilshoda Abdunosir qizi, **Andijon viloyati**	Bakalavriat	AQSh, ta'lim	University of Missouri	Tilshunoslik	Andijon viloyati (R. Karimov)
6	Madraximova Nasibaxon Numanjanovna, **Tojikiston Respublikasi**	Magistratura	Buyuk Britaniya, ta'lim	University of Reading	Boshqa tillarda so'zlashuvchilar uchun ingliz tilini o'qitish (TESOL)	Toshkent viloyati (I. Akbarov)
7	Islomov O'tkirjon Axrorjon o'g'li, **Farg'ona viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya, ta'lim	University of Leisester	Boshqa tillarda so'zlashuvchilar uchun ingliz tilini o'qitish (TESOL)	Farg'ona viloyati (Sh. Dolimov)

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 16-avgustdagi 246-son buyrug‘iga
2-ilova

“El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xorijdagi universitetlarda ta’lim olib, O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi tashkilotlarda mehnat faoliyatini olib borayotgan stipendiatlarning Toshkent shahar va hududiy boshqarmalar boshliqlariga biriktirilishi to‘g‘risida ma’lumot

№	Stipendiatning F.I.Sh, yashash joyi	Ta’lim dasturi	O‘qigan davlat va ta’lim sohasi	Universitet nomi, ta’lim olgan yili	Xorijda ta’lim olgan mutaxassislik nomi	Oldingi ish joyi va lavozimi	Hozirgi ish joyi va lavozimi	Hududiy boshqarma boshlig‘i (F.I.Sh)
1	Xo‘jakulov O‘ktam Rustam o‘g‘li, **Qashqadaryo viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya	Cardiff University	Iqtisodiyot (MBA)	Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti magistranti	Qarshi sh. Prezident maktabi o‘qituvchisi	Qashqadaryo viloyati (U. Oripov)
2	Xudjanazarov Shavkat Talatovich, **Jizzax viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya	University of Manchester	Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish	G‘allaorol tumani 37-maktab o‘qituvchisi	G‘allaorol tumani 37-maktab o‘qituvchisi	Jizzax viloyati (S. Suyarova)
3	Goyibova Orzugul Umarovna, **Buxoro viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya	University of Bristol	Pedagogika	Buxoro tumani 53-ixtisoslashgan maktab o‘qituvchisi	MMTV yetakchi mutaxassisi	Buxoro viloyati (F. Qurbonov)

4	Godarova Gulnaz Abdimuratovna, **Qoraqalpog'iston Respublikasi**	Magistratura	Buyuk Britaniya	University of Bristol	Pedagogika	Taxiatosh tumani 9-maktab o'qituvchisi	Nukus sh. Prezident maktabi maslahatchisi. Taxiatosh tumani 9-maktab o''qituvchisi	Qoraqalpog'iston Respublikasi (A. Narimbetov)
5	Kurbanova Gulsanem Kenesbaevna, **Qoraqalpog'iston Respublikasi**	Magistratura	Buyuk Britaniya	University of Reading	TESOL	Nukus shahar 46-IDUM o'qituvchisi	Malaka oshirish markazida metodist	Qoraqalpog'iston Respublikasi (A. Narimbetov)
6	Xamidov Munis Musinovich, **Samarqand viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya	Swansea University	Informatika	Yunusobod tumani 9-IDUM o'qituvchisi	Yunusobod tumani 9-IDUM o'qituvchisi	Samarqand viloyati (Sh. Sultonov)
7	Ikromova Sevaraxon Rustamjonovna, **Farg'ona viloyati**	Magistratura	Buyuk Britaniya	University of Reading	TESOL	Farg'ona shahar 21-IDUM o'qituvchisi	Farg'ona shahar 21-IDUM o'qituvchisi	Farg'ona viloyati (Sh. Dolimov)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida buyuraman:

1. Quyidagilar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2023-yil 27-iyuldagi 2-sonli majlis bayonida tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi yuzasidan tegishli qaror qabul qilinganligi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yo‘lga qo‘yilgan o‘quvchilarning bilimini formativ va summativ baholash tizimi ijobiy joriy etilganligi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 192-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — tajriba-sinov maktablari), shuningdek, bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish istagini bildirgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-11-sinflarida formativ va summativ baholash tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etilsin.

3. Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablarida yangi baholash jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha vaqtinchalik tartib ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S. Radjabov)ga tajriba-sinov ishlari tashkil etilishiga rahbarlik qilish hamda muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklansin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A. Ubbiyev):

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tajribasidan kelib chiqib, tajriba-sinov davrida uzluksiz metodik yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rsin;

bir oy muddatda tajriba-sinov jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Ta’lim sohasidagi

islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limiga taqdim etsin.

6. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D. Davidova):

o‘rnatilgan tartibda milliy va xorijiy malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tajriba-sinov maktablari uchun test topshiriqlari formati, vaqt me’yorlari, baholash mezonlari va test sinov materiallarini ishlab chiqsin;

bir oy muddatda tajriba-sinov jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash yuzasidan mablag‘ talabnomasini Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limiga taqdim etsin.

7. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I. Xoliqulov) tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini amalga oshirish xarajatlarini taqdim etilgan talabnomalarga asosan o‘z vaqtida moliyalashtirilishi ta’minlasin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

bir hafta muddatda bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish istagini bildirgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini vazirlikka taqdim etish;

belgilangan maktablarda tajriba-sinov jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakuni bo‘yicha tajriba-sinov xulosalarini vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Axborot xizmati (D. Sobirova) umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar bilimini baholashning yangi tartibi tajriba-sinovdan o‘tkazilganligini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

10. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 16-avgust,
248-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining namunaviy Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son va “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) tasarrufidagi davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabining namunaviy ustavi (keyingi o‘rinlarda - Ustav) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E. Murodov) vazirlik tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari tomonidan mazkur Ustavga rioya qilinishi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bir oy muddatda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan Ustav asosida tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining Ustavi tayyorlanishi va tasdiqlanishi hamda belgilangan tartibda davlat xizmatlari markazlari orqali ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining namunaviy Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 27-fevraldagi 72-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 18-avgust,
250-son

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va
maktab ta’limi vazirining
2023-yil 18-avgustdagi
250-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

“TASDIQLAYMAN” _____ tuman
(shahar) hokimi

_____ _____
2023-yil “___” - _____

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

_____ viloyati , _____tuman
(shahar)
_____ - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining

N A M U N A V I Y U S T A V I

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Ustav ___-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining (keyingi o‘rinlarda – maktab) faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Maktab o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik)ning buyruq, topshiriq va ko‘rsatmalariga hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

3. Maktab uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u o‘quvchilarga I-XI-sinflar hajmida davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida umumiy o‘rta ta’lim beruvchi majburiy ta’lim muassasasidir.

Maktabda ta’lim jarayoni kunduzgi shaklda amalga oshiriladi.

4. Maktab yuridik shaxs hisoblanadi va o‘z Ustaviga, shaxsiy g‘azna hisob varaqlariga, bank hisob raqamlariga, o‘z nomi ko‘rsatilgan muhrga (O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushiriladi), shtampga va blankalarga ega bo‘ladi.

5. Maktabning rasmiy nomi:

a) davlat (o‘zbek) tilida:

to‘liq nomi – __-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, qisqartmasi – __-sonli maktab;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Srednyaya общеобразovatelnaya shkola №__, qisqartmasi – shkola №__.

6. Maktabning ustavi muassis tomonidan tasdiqlanadi va tegishincha tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

7. Davlat maktablarida umumiy o‘rta ta’lim olish bepul amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (keyingi o‘rinlarda ota-onalar deb yuritiladi) ehtiyojidan kelib chiqib, bolalarning ta’lim-tarbiyasiga ko‘maklashish maqsadida maktabda shartnoma asosida qo‘shimcha pulli ta’lim xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

8. Maktabda ta’lim olish tilini tanlash O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Maktab Vazirlik tizimiga kiritilgan _____ maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (vazirligi), _____ tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi davlat muassasasi hisoblanadi.

10. Maktab _____ viloyati, _____ tumani (shahri), _____ mahallasi, _____ ko'chasi, __-uyda joylashgan. Indeks raqami _____.

2-bob. Maktabning maqsadi va vazifalari

11. Maktabda o'quvchilarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Maktabda ta'lim jarayonlari dunyoviy xususiyatga ega.

12. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olish yuzasidan konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoada ishlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

13. Maktabning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirilishini hamda kompetensiyalarni egallashlarini ta'minlash;

o'quvchilarning ta'lim olishga rag'batini oshirish, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish;

o'quvchilarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z oilasiga, Vataniga va xalqiga sodiqlik ruhida shakllantirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitishning zamonaviy pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish va natijadorlikka erishish;

o'quvchilarning o'ziga xos individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishlari va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish.

14. Maktab umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun barcha zarur tashkiliy, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik ta'lim-tarbiya muhitini yaratib beradi.

15. Umumiy o‘rta ta’lim (I – XI-sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich ta’lim (I – IV-sinflar);

tayanch o‘rta ta’lim (V – IX-sinflar);

o‘rta ta’lim (X – XI-sinflar).

16. Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

17. Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII-sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni kasbiy layoqatini aniqlash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

18. O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek, ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi.

X-XI-sinf o‘quvchilariga maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan mutaxassisliklar bo‘yicha kasb-hunar o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi.

19. Umumiy o‘rta ta’lim uzluksiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim (XI sinf) bitiruvchilariga yo‘nalishni ixtiyoriy ravishda ta’limning keyingi bosqichini, ya’ni professional ta’lim, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish huquqini beradi.

3-bob. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uning mazmuni

20. O‘quv-tarbiyaviy ishlar umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlari va tayanch o‘quv rejasi hamda yuqori sinflarda o‘quvchilarning qiziqishlariga ko‘ra tanlov fanlar o‘quv rejasi asosida amalga oshiriladi.

O‘quv-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq boshqa masalalar (dars jadvalini shakllantirish, haftalik o‘quv yuklama) umumiy o‘rta ta’limning davlat standartiga asosan ishlab chiqilgan o‘quv rejaga muvofiq belgilanadi.

21. Belgilangan me’yorlar bo‘yicha tegishli maydonga ega bo‘l-

gan maktablardagi sinflarda o‘quvchilar soni 35 nafardan ortib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

22. Sinflar jamlanmasi “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom” *(Adliya vazirligida 2020-yilda 30-iyunda 3271-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)* asosida amalga oshiriladi.

23. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o‘rinlarda – tibbiy komissiya) xulosasiga asosan bolalarga inklyuziv ta’lim hamda yakka tartibda uyda ta’lim berish tashkil qilinishi mumkin.

24. Maktabda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklar o‘quvchilar va ota-onalar xohish istaklarini, o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

25. Zaruriyatga ko‘ra, o‘quvchilarning ovqatlanishi va yashashi uchun lozim darajadagi shart-sharoitlar yaratiladi.

26. O‘quv yili tegishli yilning sentabr oyi birinchi xaftasidan kelgusi yilning 25-mayiga qadar davom etadi va to‘rtta chorakka bo‘linadi. O‘quv yilining boshlanishi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelganda, dam olish kunlaridan so‘ng birinchi ish kunidan boshlanadi.

27. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta (I sinflar uchun 33 hafta);

o‘quv haftasining davomiyligi – 6 kun (I-IV sinflar uchun 5 kun);

dars mashg‘ulotining davomiyligi – 45 daqiqa;

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus – 5-10 daqiqa (o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi – 15-30 daqiqa).

28. Qonun hujjatlarida bayram (ishlanmaydigan) kuni deb belgilangan kunlarda dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelib qolgan dars mashg‘ulotlarining mavzulari o‘quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg‘ulotlarida o‘tkaziladi.

29. O‘quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kun;

qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kun;

bahorgi ta’til – 21-martdan boshlab 7 kalendar kun;

yozgi ta’til - oxirgi imtihon o‘tkazilgan kundan boshlab 1-sentabrgacha;

ta’tilning oxirgi kuni bayram (ishlamaydigan) kunga to‘g‘ri kelib qolgan taqdirda, dars mashg‘ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi;

1-sinf o‘quvchilari uchun fevral oyi davomida qo‘shimcha bir haf-

talik ta'til belgilanadi.

30. Yozgi ta'til kunlari maktabda kunduzgi oromgohlar va maydonchalar tashkil etilishi mumkin.

31. Quyidagi hollarda sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitiladi:

o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lganda I – XI-sinflarda "Chet tili" fani, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflarda ixtisoslashgan fanlar, V – XI sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari", VIII – XI-sinflarda "Jismoniy tarbiya", V – IX-sinflarda "Texnologiya", X-XI-sinflarda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanlari, ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan II – XI-sinflarda "O'zbek tili" fani hamda ta'lim tili rus tili bo'lmagan II – XI-sinflarida "Rus tili" fani.

32. Maktab o'quvchilarining o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini baholash tartibi Vazirlikning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

O'quvchilarning sifatli bilim olishini va ularni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga mos holda o'qitish natijalarini nazorat qilishni ta'minlash maqsadida belgilangan tartibda tashqi va ichki nazorat turlari o'tkaziladi.

33. Maktabda ta'lim oluvchilar Vazirlikning buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkaziladi.

Tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasi va umumta'lim muassasasining pedagogik kengashi qarori asosida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining buyrug'i bilan o'quvchilar yakuniy davlat attestatsiyasidan ozod etilishi mumkin.

Ularning bilimlarini yakuniy baholash va reytingini aniqlash yillik baholar asosida amalga oshiriladi.

34. Maktab bitiruvchilariga belgilangan tartibda ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma) beriladi.

4-bob. O'quvchilarni o'qishga qabul qilish

35. O'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi.

36. Maktab direktori tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan maktablarga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) doirasida Ichki ishlar vazirligining manzil-ro'yxat va Adliya vazirligining fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etish bo'limlarining ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan Vazirlikning elektron tizimidan maktab yoshidagi bolalarning ro'yxatini shakllantirish orqali ularni umumiy o'rta ta'limga qamrab oladi.

Bunda biriktirilgan hududlar (mikrohudud) doirasida doimiy yashash hamda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan va haqiqatda yashovchi oila farzandlari inobatga olinadi.

Agar maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilgan bo‘lsa, istisno tariqasida maktabga nisbatan yaqin, biroq boshqa manzilda yashovchi bolalar ham tibbiy komissiya xulosasi asosida qabul qilinadi.

37. Maktab direktori mazkur maktabga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida maktabga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

38. Maktabning birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

39. Davlat xizmatlari joriy etilgan hududlarda maktabning I-sinfiga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan ma’muriy reglamentga muvofiq amalga oshiriladi.

Qabul jarayonlari an’anaviy shaklda tashkil etilgan hududlarda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

40. O‘qishga qabul qilinayotgan bolalarning ota-onalari mazkur Ustav, odob-axloq va ichki tartib-qoidalari hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirilishi lozim.

41. Maktab rahbariyati har yili iyun-avgust oylarida bolalarni o‘qishga qabul qilish ishlarini tashkil etish uchun zarur choralarni ko‘radi.

42. Xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning farzandlarini maktabga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan reglamentga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. Maktabning tuzilmasi, boshqaruv organlari va jamoatchilik tuzilmalari

43. Maktabda shtatlar jadvali o‘quvchi o‘rni, o‘quvchilar soni va sinflar jamlanmasidan kelib chiqib tuziladi.

44.Maktabning tashkiliy tuzilmasi maktab ma’muriyati, pedagoglar va boshqa xodimlardan iborat.

45. Maktabda pedagogik kengash tuziladi va o‘quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishida oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Uning qarorlarini ijro etish maktab xodimlari uchun majburiy kuchga ega.

46. Jamoatchilik nazorati tizimini joriy etish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan maktab Kuzatuv kengashi tashkil etiladi.

Maktabda jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

47. Maktab faoliyatiga umumiy rahbarlik direktor tomonidan amalga oshiriladi.

48. Maktab direktori maktabning tashkiliy-huquqiy, o‘quv-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining tashkil etilishiga bevosita mas’ul hisoblanadi.

49. Maktab direktori:

“Direktorlar kengashi” tavsiyasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshlig‘i buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi.

Maktab faoliyatining barcha lavozim yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

o‘z lavozimi bo‘yicha pedagogik kengash raisi hisoblanadi;

o‘z o‘rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalarini mustaqil hal qiladi;

Maktabning o‘quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi;

ta’lim berish (o‘quv-tarbiya) ishini tashkillashtiradi, maktabning ma’muriy-xo‘jalik (ishlab chiqarish), moliyaviy ishini ta’minlaydi, xavfsizlik texnikasi me’yorlari va qoidalariga rioya qilish tartibini yaratadi;

o‘z vakolatlari doirasida har bir xodimiga ular uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmani berishga haqli;

Pedagogik kengash bilan birgalikda maktabni rivojlantirish strategiyasi, maqsadlari va vazifalarini belgilaydi;

Maktabning rivojlanish dasturlarini, o‘quv rejalari, o‘quv-uslubiy hujjatlar, Ustav va ichki tartib qoidalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini amalga oshiradi;

Maktabning yangi o‘quv yiliga tayyor bo‘lishini tashkil etadi;

Maktab faoliyati jarayonida yuzaga keladigan o‘quv-uslubiy, ma’muriy, moliyaviy, xo‘jalik va boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etadi;

pedagog va boshqa xodimlari ishini rejalashtiradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish ishlarini amalga oshiradi, xodimlarning lavozim majburiyatlarini belgilaydi, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi;

dars jadvali, o‘qituvchilarning yillik ish rejalarini, tarifikatsiya ro‘yxatlari va mehnat ta’tillari jadvallarini tasdiqlaydi;

o‘quvchilar va xodimlarining salomatligini muhofaza qilish va

mustahkamlash, sog‘lom ovqatlantirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi, ularning ishini nazorat qiladi;

jamoa shartnomasi bajarilishini ta’minlaydi, maktab pedagoglar jamoasi, kasaba uyushmasi tashkilotiga ishlash uchun zarur sharoitlar yaratadi;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

50. Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari:

direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Maktab direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Maktab direktori bilan hamkorlikda maktabdagi o‘quv jarayonini tashkil etadi, maktab pedagoglari jamoasiga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi, o‘quv jarayonida xavfsizlik texnikasi me’yorlari va qoidalariga rioya qilinishi tartibini ta’minlaydi, o‘quv ishi bo‘yicha hisobotlarni yuritadi va umumiy majburiy ta’lim bo‘yicha ishni tashkillashtiradi;

direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari bevosita Maktab direktoriga bo‘ysunadi.

51. Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi vazifalarini bajaradi:

pedagoglar jamoasining faoliyati bo‘yicha yillik, choraklik va oylik rejalarni tasdiqlash hamda bajarilishini nazorat qilish;

o‘qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarning o‘quv rejalarini va dasturlarini bajarish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

zaruriy o‘quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqilishini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

ta’lim jarayonining sifatini va o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalari obyektiv ravishda baholanishini, qo‘shimcha mashg‘ulotlar ishini muntazam nazorat qiladi;

pedagog xodimlari tomonidan o‘tkazilayotgan darslarni muntazam tahlil etib boradi;

yakuniy davlat attestatsiyalarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish ishlarini tashkil etadi;

o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari yuzasidan ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ni qabul qiladi;

pedagog xodimlarga o‘quv dasturlar va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqishda yordam beradi;

o‘quv mashg‘ulotlari va ta’lim faoliyati boshqa turlarining jadvallarini tuzadi, vaqtinchalik yo‘q bo‘lgan o‘qituvchilarning darslari sifatli va o‘z vaqtida almashtirilishini ta’minlaydi, qoldirilgan va boshqa o‘qituvchi o‘rniga o‘tilgan darslarni qayd qilish jurnalini yuritadi;

belgilangan hisobot hujjatlari o‘z vaqtida tuzilishini ta’minlaydi, pedagoglar tomonidan sinf (elektron) jurnallari va boshqa hujjatlar to‘g‘ri va o‘z vaqtida yuritilishini nazorat qiladi;

pedagog kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda ishtirok etadi, ularning malakasini va kasbiy mahoratini oshirish ishlarini tashkil etadi, o‘quvchilar bilimlarini monitoringi o‘tkazishni amalga oshiradi;

pedagoglar va boshqa xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda ishtirok etadi;

pedagoglar va o‘quv-tarbiya xodimlar tarkibining ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritadi, imzolaydi va direktorga topshiradi;

direktorning xo‘jalik ishlar bo‘yicha o‘rinbosari ishtirokida o‘quv xonalari, ustaxonalar, sport zali hamda yordamchi xonalarni pasportlashtirishni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini tashkil etadi;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar hamda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarda xavfsizlik texnikasi bo‘yicha bo‘limlar ishlab chiqilishini va muntazam qayta ko‘rib chiqilishini tashkil etadi;

direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bilan hamkorlikda yo‘l harakati va ko‘cha-kuyda o‘zini tutish, yong‘in xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish uslubiyati va tartibini belgilaydi;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

52. Direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari:

direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish Vazirlikning 2023-yil 27-iyundagi 190-son buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi;

direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qiladi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarga umumiy uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

direktor o‘rinbosari tadbirlarda, o‘quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari ishlashda xavfsizlik texnikasi me’yorlariga va qoidalariga rioya qilinishini ta’minlaydi, tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha ota-onalar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, mahalliy hokimlik, huquq-tartibot idoralari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bevosita Maktab direktoriga bo‘ysunadi.

pedagogik jamoaning ta’til paytidagi faoliyatini, jumladan yozgi o‘quv ta’til davrida o‘quvchilarning kunduzgi dam olish oromgohlarda dam olishi bilan bog‘liq ishlarni tashkil qilish.

53. Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari o'z vakolatlari doirasida quyidagi lavozim vazifalarini bajaradi:

o'quvchilar bilan sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bo'yicha rejalar tuzilishini va uning o'tkazilishini tashkil etadi;

sinf rahbarlari, psixologlar, kutubxonachi hamda bevosita ushbu direktor o'rinbosariga bo'ysunuvchi boshqa xodimlarning ishini muvofiqlashtiradi;

muntazam ravishda tarbiyaviy ishlarga oid tadbirlar o'tkazilishini ta'minlaydi;

tarbiyaviy ishlar yo'nalishida bevosita ota-onalar bilan hamkorlik qiladi;

o'quvchilarning darslarga qatnashishi (davomat)ni kundalik nazorat qiladi, surunkali dars qoldirayotgan o'quvchilarni ota-onalar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ta'limga jalb etish choralarini ko'radi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan birgalikda profilaktik tadbirlar o'tkazadi;

maktab psixologi bilan birgalikda voyaga yetmaganlar orasida o'z joniga qasd qilish va boshqa salbiy holatlarni oldini olish bo'yicha suhbatlar o'tkazadi;

iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

maktab kutubxonachisi bilan birgalikda o'quvchilarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish yuzasidan targ'ibot tadbirlarini o'tkazadi;

o'quvchilar va ularning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan sog'likni muhofaza qilish, yo'l transport xavfsizligi va boshqa baxtsiz hodisalarni oldini olish yuzasidan tadbirlarni tashkil etadi;

o'quvchilarning mazkur Ustav va ichki-tartib qoidalarida, odob-axloq qoidalarida belgilangan me'yorlarga amal qilinishi ustidan nazorat qiladi;

o'quvchilarning Ustavda belgilangan o'quvchi formasida kelishlari, o'quv qurollarini to'liq olib kelishlari yuzasidan nazorat o'rnatadi;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

54. Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari o'z vakolati doirasida quyidagi lavozim vazifalarini bajaradi:

direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Maktab direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

maktab binolarining texnik holatiga, ya’ni saqlanishiga, barcha moddiy boyliklar (inventarlar, turli o‘quv ko‘rgazmali jihozlar)ning saqlanishiga javobgardir;

maktabdagi xo‘jalik ishchilari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

moddiy tovar boyliklarning (maktabga olib kelingan inventarlarni, xo‘jalik va kanselyariya mollarini kirim qilish, ularni o‘z vaqtida tarqatish, ro‘yxatdan chiqarilgan moddiy boyliklarni chiqim qilish) aylanma qaydnomasini yuritadi;

har o‘quv yili boshlangunga qadar barcha jihozlarni ta’mirlash, har bir sinf xonasini, fan kabinetlarini, laboratoriyalarni ta’mirlash, jihozlash, yangi o‘quv yiliga tayyorlash, ro‘yxat bo‘yicha jihozlar, mebellarni sinf rahbarlariga, kabinet mudirlariga, laboratoriya mudirlariga belgilangan tartibda (topshirish-qabul qilib olish dalolatnomalari tuzilgan holda) topshiradi va o‘quv yili yakunlanganda ularni butun holatda qabul qilib oladi;

kommunal to‘lovlar (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi) bo‘yicha hisoblagichlarni kundalik ko‘rsatkichlarini olib, tahlil qilgan holda, byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil qiladi;

telefon tarmoqlaridan foydalanishda, aloqaning uzluksizligini, sifatini nazorat qilish hamda aloqa buzilgan hollarda hududiy telefon tarmoqlari bo‘linmalariga xabar berib, aloqani tiklash choralarini ko‘radi;

ta’lim muassasasining sanitariya holatini talablar darajasida bo‘lishida farroshlar, binoni qo‘riqlashda qorovullar, atrof-muhitni obodonlashtirishda texnik xodimlar ishini muvofiqlashtiradi;

bir yilda bir marta jamoat komissiyasi bilan birgalikda moddiy boyliklarni turlari bo‘yicha xatlov (inventarizatsiya)dan o‘tkazadi;

maktabda ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etadi;

kuz-qish mavsumida issiqlik tizimidan foydalanishda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga asosan issiqlik bosimining yetarli darajada bo‘lishini, uning davomiyligini, issiqlik yetarli darajada bo‘lmagan kunlarda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga ma’lum qilish hamda ushbu kunlarni ro‘yxatga olib, maktabgacha va maktab ta’limi tuman (shahar) bo‘limlarining markazlashtirilgan moliya-buxgalteriyasiga issiqlik uchun to‘lab beriladigan mablag‘larni qayta hisob-kitob qilishi haqida ogohlantiradi;

kuz-qish mavsumiga maktab binosi tomlarini, oyna va romlarini,

isitish tizimini, kanalizatsiya quvurlarini ta'mirlab, tayyor holga keltiradi;

yakka tartibda isitiladigan ta'lim muassasalarida qattiq va suyuq yoqilg'i materiallarini qabul qilish va sifatli saqlash, ularni belgilangan miqdorlarda sarflash hamda isitish tizimini optimal darajada ishlashini ta'minlaydi;

yong'in xavfsizligi uskunalarini yetarli darajada bo'lishini ta'minlaydi.

6-bob. Ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ota-onalar va boshqa qonuniy vakillarining maqomi, huquqlari va majburiyatlari

55. Quyidagilar ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi:

ta'lim oluvchilar (o'quvchilar);

pedagoglar (o'qituvchilar);

maktab ma'muriyati (direktor, direktor o'rinbosarlari);

ota-onalar (yoki ularning qonuniy vakillari);

56. Ta'lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o'rta ta'lim olish;

yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat maktabiga qabul qilinish;

davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lim olish;

ta'lim olish uchun o'zining psixologik xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek, bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalanish;

ta'lim olish jarayonida maktabning o'quv, uslubiy, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

turli xil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, seminarlar, anjumanlar, olimpiadalar, ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish;

qo'shimcha (pulli va bepul) ta'lim xizmatidan foydalanish;

ta'lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabda o'quvchilarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarga (majburiy mehnat) jalb etish ta'qiqlanadi.

57. Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari:

o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlash-

tirishi, mashg‘ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko‘rishi, pedagoglarning o‘quv jarayoni bilan bog‘liq topshiriqlarini bajarishi;

pedagoglarni hurmat qilish;

ustav talablariga, odob-axloq va ichki tartib-qoidalariga, ta’lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

belgilangan o‘quvchi formasida kelish;

o‘quv jarayoni uchun kerak bo‘lgan barcha jihozlarni, darslik, o‘quv qo‘llanmalari va daftarlarini to‘liq olib kelishi;

ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo‘ravonlik ishlatmasligi va ularning o‘z majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilmasligi;

maktabda ta’lim olayotgan nogironligi bo‘lgan bolalarni kamsitmagan holda, ularga g‘amxo‘rlik qilish va har tomonlama yordam ko‘rsatish;

axloqiy, ma’naviy va jismoniy kamol topishga hamda o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

maktabning mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

Ta’lim oluvchilarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

58. Pedagoglarning huquqiy maqomi:

Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish hamda 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma’lumotli talabgorlar stajor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega.

Pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin maktabda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

Sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

59. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

60. Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish;

o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish metodini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o'quv fanlari, kurslaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shakllarini, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

maktabni boshqarishda, uning faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanish;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga (majburiy mehnat) jalb qilish taqiqlanadi.

61. Pedagog xodimlarning majburiyatlari:

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

nogironligi bo‘lgan bolalarni kamsitmaslik va ularning ilm olishlariga har tomonlama ko‘maklashish;

maktab ustaviga va boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga hamda kiyinish madaniyatiga rioya etishi;

o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi;

metodik kengash faoliyatida va boshqa shakldagi uslubiy ishlarda ishtirok etishlari;

tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek, ta’lim oluvchi va ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

62. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va maktabning ustavi bilan tanishish;

ta’limning mazmuni, qo‘llanilayotgan ta’lim va tarbiya usullari, ta’lim texnologiyalari bilan tanishishi;

o‘z bolalarining o‘quv fanlarini o‘zlashtirish natijalari hamda tarbiya ko‘rsatkichlari bilan tanishish;

ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

Kuzatuv kengashi va ota-onalar qo‘mitasi vakili sifatida saylanish hamda maktabni boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarga inklyuziv ta’lim olish va uyda yakka tartibda ta’lim olish imkoniyatini berish;

maktab bilan hamkorlik qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar kiritish;

ota-onalar farzandlarini o‘quv yili davomida yoki u tugaganidan

keyin bir sinfdan boshqa sinfga yoki bir maktabdan boshqasiga o‘tkazish.

Ota-onalar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

63. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillarining majburiyatlari:

farzandlarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hamda o‘qituvchilarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

farzandlarning tarbiyasi, majburiy umumiy o‘rta ta’lim olishini va odob-axloq qoidalariga amal qilishini ta’minlashi;

farzandlarining o‘quv mashg‘ulotlariga o‘z vaqtida qatnashishini ta’minlash va o‘zlashtirishi nazorat qilish;

farzandlarining mobil telefon va internet tarmoqlaridan to‘g‘ri foydalanishini nazorat qilish;

farzandlarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

farzandlarining maktab ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

o‘qituvchilarni hurmat qilish va dars jarayonlariga halaqit bermaslik;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o‘z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, jumladan pedagoglarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Ota-onalar zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

64. Ota-onalar (yoki ularning qonuniy vakillari) bolaning o‘qishi, tarbiyasi, jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas’uldir.

Ota-onalar (yoki ularning qonuniy vakillari) bolaning xatti-harakatlari, jumladan, maktabdan tashqari vaqtdagi xatti-harakatlari uchun ham javobgar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ta’lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek, individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko‘maklashadi.

7-bob. Moliyalashtirish, mol-mulki va vositalari

65. Maktablarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Maktablar mazkur ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish davlat ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

maktablarni moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalari quyidagilardan iborat:

binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga berish hisobidan tushgan mablag‘lar;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning beg‘araz xayriya mablag‘lari.

66. Maktablar o‘z mulkiga, xo‘jalik yurituvidagi yoki operativ boshqaruvidagi mulkka ega bo‘ladi.

maktabning operativ boshqaruvida yoki xo‘jalik yurituvida bo‘lgan obyektlarning (binolar, inshootlar, qurilayotgan binolar va inshootlarning, o‘quv va ijtimoiy infratuzilmalar) asossiz xususiylashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Maktab qayta tashkil etilgan hollarda ularning mol-mulki yangi tashkil etilgan maktabga huquqiy vorislik asosida o‘tkaziladi.

67. Maktab faoliyatini moliyalashtirish belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

68. Maktabga byudjetdan tashqari qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish byudjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmasligi lozim.

69. Maktab o‘z Ustavida belgilangan maqsadlarga muvofiq qo‘shimcha mablag‘ topish huquqiga ega.

70. Maktablar shtatidagi xodimlar soni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining namunaviy shtatlariga muvofiq belgilanadi.

71. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatdan olingan daromad hisobiga sotib olingan mol-mulk umumiy o‘rta ta’lim muassasasining mol-mulki tarkibiga kiritiladi.

72. Maktabning mol-mulki va pul mablag‘lari sarflanishi uchun bevosita direktor javobgar hisoblanadi.

73. Maktab tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy va statistik hisobot yuritiladi.

74. Maktab xodimlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish hamda ish haqiga ustamalar qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

75. Maktablarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘ysunuvida tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan, tumanlar va shaharlar bo‘ysunuvida tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlariga faoliyati tugatilgan maktab o‘quvchilarini ota-onalarning roziligi bilan yashash manziliga yaqin bo‘lgan hududdagi boshqa maktablarga o‘tkazish hamda pedagog va boshqa xodimlarni ishga joylashtirish majburiyati yuklatiladi.

76. Maktablar faoliyatining ochiqligi va shaffofligi Internet jahon tarmog‘ida rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan maktab faoliyati to‘g‘risidagi ochiq axborot resurslari bilan ta’minlanadi.

maktab rasmiy veb-saytlarida quyidagilarni joylashtiradi:

ta’lim tashkilotining ustavi;

ta’lim berish tillari haqida ma’lumot;

davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari;

ta’lim faoliyatining moddiy-texnika ta’minoti haqida ma’lumot;

maktabning reytingi;

ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikat;

pedagoglar va ta’lim oluvchilarning soni, shuningdek, pedagoglarning ilmiy salohiyati to‘g‘risidagi ma’lumot.

maktablarning rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan axborotning ishonchligini ta’minlash uchun maktab direktorlari shaxsan javobgardir.

77. Pedagogik kengash qarori bilan ajratilgan umumiy soatlar doirasida o‘quv rejalariga 15 foizgacha o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

78. Maktabning xalqaro hamkorligi Vazirlik ko‘rsatmasi bilan xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan pedagogik tajriba almashish, pedagog xodimlarning malaka oshirishi hamda stajirovka o‘tashi shaklida amalga oshiriladi.

79. Maktab o‘quvchilarning ota-onalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa ta’lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan uzviy aloqada faoliyat ko‘rsatadi.

80. Maktabda ularning ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkilotlar, jumladan siyosiy partiyalar va harakatlar tashkil etilishiga va faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

81. Maktab tugatilgan taqdirda uning pul mablag‘lari va mol-mulkidan, uning majburiyatlarini qoplash bo‘yicha to‘lovlar chegirilgan holda, qonun hujjatlariga va maktabning amaldagi Ustaviga muvofiq foydalaniladi.

82. Maktabning amaldagi Ustavini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi bilan kelishilgan holda qayta amalga oshiriladi.

83. Mazkur Ustav talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur Ustav maktab Pedagogik kengashining 20___-yil
____-_____ dagi
____ –sonli qarori bilan ma’qullangan.

Pedagogik kengash raisi _____ F.I.Sh
(imzo, muhr)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 2-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 25-martdagi 66-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish hamda ular asosida o‘rganish o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tomonidan “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar xalqaro baholash, jumladan, CIS mezonlari asosida takomillashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar (yangi tahrirda) 1-ilovaga muvofiq;

“Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S. Radjabov):

a) ikki hafta muddatda “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini baholash metodikasi va tartibining yangi tahriri ishlab chiqilishi hamda umumta’lim tashkilotlariga yetkazilishini ta’minlasin;

2023-yil 1-oktabrga qadar maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyalash tartibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20- apreldagi PQ-128-son qarorida belgilangan tartibda vakolatli organ bilan hamkorlikda “Zamonaviy maktab” hamda “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlariga moslashtirish choralarini ko‘rsin.

b) Maktabgacha ta’lim agentligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini

baholash metodikasi va tartibini ishlab chiqsin hamda o‘rnatilgan tartibda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yetkazilishini ta’minlasin;

2023-yil 10-dekabrga qadar tasdiqlangan mezonlar asosida 2024-yildan boshlab har yili davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kamida 20 foizini baholash hamda ularning reytingini shakllantirish, tegishli maqomdagi sertifikatlashni tashkil tashkil etish bo‘yicha taklif kiritsin.

4. “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK (F.Mirbabayev)ga:

“Zamonaviy maktab” talablari asosida baholash bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari reytingini aniqlashning elektron platformasini yangi tahrirdagi “Zamonaviy maktab” talablarga moslashtirish hamda mavjud axborot tizimlari bilan o‘zaro integratsiya qilish choralarini ko‘rish;

elektron platformani yangi tahrirdagi “Zamonaviy maktab” talablariga moslashtirish hamda mavjud axborot tizimlari bilan o‘zaro integratsiya qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni vazirlikka taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U. Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 8-avgust,
253-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 18-avgustdagi
253-son buyrug‘iga
1-ILOVA

“Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar (yangi tahrirda)

I. Ta’lim va tarbiya jarayoni	**300**
1. Akademik natijalar	***165***
1.1. Umumta’lim muassasasi o‘quvchilarining respublika fan olimpiadalarida qo‘lga kiritgan yutuqlari	15
1.2. Umumta’lim muassasasi o‘quvchilarining xalqaro fan olimpiadalarida qo‘lga kiritgan yutuqlari	25
1.3. Umumta’lim muassasasi bitiruvchilarining respublika oliy ta’lim muassasasiga kirish imtihonidagi natijalari	25
1.4. Umumta’lim muassasasi bitiruvchilarining ta’limning keyingi bosqichi bilan qamrab olinganligi hamda bandligi ta’minlanganligi	100
2. Noakademik natijalar	***45***
2.1. Respublika miqyosidagi rasmiy tanlovlardagi natijalar	20
2.2. Rasmiy xalqaro tanlovlardagi natijalar	25
3. Variativ va darsdan tashqari ta’lim qamrovi	***45***
3.1. Variativ o‘quv reja joriy qilinganligi	15
3.2. Fan, ijodiy va sport to‘garaklari tashkil etilganligi	10
3.3. O‘quvchilarning to‘garaklarga jalb qilish natijadorligi	10
3.4. Maktabda zamonaviy to‘garaklar tashkil etilganligi	10
4. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun (inklyuziv) ta’lim joriy etilganligi	***10***
4.1. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab olinishi	5
4.2. Inklyuziv ta’lim-tarbiyani targ‘ib etish va erishilgan yutuqlar	5
5. Tarbiyaviy ishlar samaradorligi	***35***

5.1. Umumta'lim muassasasi o'quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklar holatlari	15
5.2. Umumta'lim muassasalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ishtiroki (davomat)	10
5.3. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlar olib borilganligi	10
II. Umumta'lim muassasasini boshqarish	**200**
6. Umumta'lim muassasasini boshqarish strategiyasi va moliyaviy faoliyati	***80***
6.1. Umumta'lim muassasasini boshqarish strategiyasi	15
6.2. Umumta'lim muassasasi faoliyatining moliyaviy samaradorligi (budjetdan tashqari mablag'larni jalb etilishi)	30
6.3. O'quvchilar sonining maktab quvvatiga nisbatan mutanosibligi	20
6.4. O'quvchilar xavfsizligi	15
7. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilganligi	***120***
7.1. Umumta'lim muassasasini kompyuterlar bilan ta'minlanganligi darajasi:	30
Informatika xonasining kompyuterlar bilan ta'minlanganligi	*10*
Boshqa sinf xonalarning kompyuterlar bilan ta'minlanganligi	*10*
Ma'muriyat xonalarning kompyuterlar bilan ta'minlanganligi	*10*
7.2. Umumta'lim muassasasida AT infratuzilmasi, ATni inklyuziv ta'limga joriy etilganligi va axborot tizimlaridan foydalanish darajasi:	90
Kompyuterlarning tarmoqqa ulanganligi va yangilanishi	*25*
AT infratuzilmasi	*15*
Axborot tizimlaridan va litsenzion dasturlardan foydalanish darajasi	*45*
Inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarning joriy etilganligi	*5*
III. Malakali mutaxassislar hamda adabiyotlar bilan ta'minlanganligi	**200**
8. Malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi	***160***
8.1. Oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi	15
8.2. Ehtiyojga muvofiq o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi	10
8.3. Maxsus pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi	5

8.4. Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ulushi	80
8.5. O‘qituvchilar malakasini oshirish	10
8.6. O‘qituvchilarining milliy va xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari darajalari (sertifikatlarga egaligi)	25
8.7. Maktab o‘qituvchilarining turli darajadagi yutuqlari	15
9. Kutubxona faoliyatini va kitobxonlik	***40***
9.1. Umumta’lim muassasasi o‘qituvchi va o‘quvchilarni kutubxonaga a’zo bo‘lganligi	10
9.2. O‘quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish samaradorligi	10
9.3. Kutubxonada turli kitoblarning mavjudligi	10
9.4. Maktab kutubxonasini adabiyotlar bilan ta’minlanganligi	10
IV. Umumta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, infrastrukturasi va jihozlash me’yoriga asosan jihozlanganlik holati	**300**
10. Muassasa bino va inshootlari hamda infratuzilmasining asosiy ko‘rsatkichlari	***210***
10.1. Zaruriy bino inshootlardan tarkib topganligi hamda infratuzilmasi:	85
Sport zali va tashqi sport maydonlari	*15*
Faollar zali	*15*
Oshxona (bufet)	*15*
Kutubxona	*15*
Isitish tizimi	*15*
Umumta’lim muassasasi atrofi o‘ralganligi	*5*
Energiya tejovchi qurilmalar	*5*
10.2. Ta’mirlanganlik holati	25
10.3. Yong‘in xavfsizligi ta’minlanganligi	5
10.4. Umumta’lim muassasasi bino inshootlarining tegishli loyiha asosida qurilganligi (yoki moslashtirilganligi)	20
10.5. Umumta’lim muassasasi toza ichimlik suvi va samarali kanalizatsiya tizimiga ega ekanligi	50
10.6. Nogironligi bo‘lgan bolalar (shaxslar) to‘siqsiz harakatlanishi uchun zarur sharoitlar (binolarda maxsus infratuzilma)	5

10.7. Umumta'lim muassasasining obodonchiligi	15
10.8. Maktabda favqulodda vaziyatda harakatlanish rejasining mavjudligi hamda o'quvchilarning xabardorligi	5
11. Muassasa hududlaridan samarali foydalanish darajasi hamda jihozlash me'yoriga asosan jihozlanganlik holati	***90***
11.1. Pollar, devorlar, zinapoyalar va boshqa elementlardan o'rgatish hududi sifatida foydalaniladi hamda boshlang'ich va yuqori sinflarga moslashtirilganligi	5
11.2. O'quv sinf xonalari mebel jihozlari bilan ta'minlanganligi	30
11.3. Ma'muriy-metodik va yordamchi xonalarning zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi:	10
Rahbar xonasining zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi	*2*
O'qituvchilar xonasining zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi	*2*
Kutubxonaning zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi	*2*
Psixolog xonasining zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi	*2*
Tibbiyot xonasining zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi	*2*
11.4. Maxsus (STEAM) o'quv sinf xonalari zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi:	35
Fizika laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi	*8*
Kimyo laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi	*8*
Biologiya laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi	*8*
Texnologiya xonasining jihozlari bilan ta'minlanganligi	*6*
Tasviriy san'at va chizmachilik xonasining jihozlari bilan ta'minlanganligi	*5*
11.5. Maxsus uskuna va jihozlar bilan ta'minlanganligi:	10
a) Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun	*4*
b) Nutqida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun	*3*
v) Tayanch-harakatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun	*3*
JAMI	**1000**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 8-avgustdagi
253-son buyrug‘iga
2-ILOVA

“Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlari

I. TA’LIM-TARBIYA JARAYONI	**170**
1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etilganligi	***45***
1.1. Dastur va o‘quv rejaning mavjudligi	20
1.2. Bolalar yosh xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan mavzuli rejaning mavjudligi va unga asosan tashkil etilgan bolalar faoliyati	10
1.3. Pedagogning ish jurnali va uning dastur bilan tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq yuritilishi	10
1.4. Ta’lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlarining qo‘llanilishi	5
2. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi	***50***
2.1. Bolalarning rivojlanish xaritasining mavjudligi va uning yuritilish darajasi	30
2.2. Pedagog tomonidan bolaning rivojlanishini kuzatish jarayoni tashkil etilganligi (*jadval va boshqa mexanizmlarning mavjudligi*)	20
3. Tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki	***10***
3.1. Tarbiyalanuvchilar davomati	10
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida xavfsiz, rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish natijalari	***60***
4.1. Rivojlantiruvchi muhitning xavfsizligi *(Maktabgacha ta’lim tashkiloti hududi va guruhlardagi Sanitariya qoidalari va normalariga rioya etilishi*)	15
4.2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhda 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilganligi va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilganligi	15
4.3. Rivojlantiruvchi markazlarning o‘quv didaktik materiallar, o‘yin va o‘yinchoqlar bilan ta’minlanganligi hamda o‘yinchoqlarning bola qo‘li yetadigan joyda joylashganligi	15
4.4. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hududida bolalarga ekologik ta’lim va tarbiyani berish uchun tashkil etilgan muhitning mavjudligi (*tomorqa, ekologik yo‘lakcha, hududning landshaft dizayni, guruhdagi tabiat burchagi*)	15
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim-tarbiya muhitining mavjudligi (inklyuziya)	***5***

5.1. Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim bilan qamrab olinishi	2
5.2. Bolaning individual ta’lim marshrutining mavjudligi va uning yuritilishi	3
II. BOSHQARUV SIYOSATI VA KADRLAR SALOHIYATI	**140**
6. Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini belgilovchi amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruvning tashkil etilganligi	***40***
6.1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan 3 yillik istiqbol rejasining mavjudligi	5
6.2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ma’muriyatining yillik ish rejasi mavjudligi va uning bajarilishi	10
6.3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti kun tartibining mavjudligi va unga rioya etilishi	5
6.4. Pedagoglar malakasini oshirishning bir yillik rejasi mavjudligi va uning bajarilishi	5
6.5. Rahbariyat va xodimlar o‘rtasida tuzilgan Jamoa shartnomasining mavjudligi	5
6.6. “Ustoz-shogird” maktabi yo‘lga qo‘yilganligi	5
6.7. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ichki baholash tizimi yo‘lga qo‘yilganligi	5
7. Rahbar va tarbiyachi pedagog kadrlar salohiyati	***80***
7.1. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi oliy ma’lumotli pedagoglar ulushi	15
7.2. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga ajratilgan shtat birligi bo‘yicha xodimlar bilan to‘ldirilganlik holati	25
7.3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining lavozimi bo‘yicha malaka talablariga mosligi	15
7.4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida xodimlarning tizimli ravishda malaka oshirganligi hamda kasbiy mahorati rivojlantirib borilganligi	10
7.5. Pedagoglarning turli darajadagi tanlov va musobaqalardagi natijalari	10
7.6. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining ilmiy-uslubiy ishlari	5
8. Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta’lim tashkiloti quvvatiga mutanosibligi	***20***
8.1. Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta’lim tashkiloti quvvatiga mutanosibligi	20
III. RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITI	**160**
9. Moddiy-texnika bazaning holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar	***100***
9.1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida zaruriy bino va inshootlarning mavjudligi	20
9.2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti binosining ta’mirlanganligi	10
9.3. Yong‘in xavfsizligi tizimining mavjudligi	5

9.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ichimlik suvi va kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi	5
9.5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tom qismining ta'mirlanganligi	5
9.6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hojatxonasining holati	5
9.7. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududining obodonlashtirilganligi	10
9.8. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududidan samarali foydalanish darajasi. Belgilangan me'yorlar bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti jihozlanganligi	10
9.9. Isitish tizimi	10
9.10. Xavfsiz sharoit yaratilganligi *(ichki-tashqi kameralar, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, atrof o'ralganligi)*	10
9.11. Energiya tejovchi qurilmalardan foydalanish darajasi	5
9.12. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar (shaxslar) to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilganligi	5
9. Tarbiyaviy ishlar samaradorligi	***10***
9.1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining odob-ahloq va ichki mehnat tartibi qoidalari tasdiqlanganligi va unga amal qilinishi	10
10. AKT bilan ta'minlanganlik darajasi va infratuzilmasi	***10***
10.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kompyuterlar bilan ta'minlanganligi	5
10.2. Kompyuterlarning yangilanishi va ularni tarmoqqa ulanganligi, foydalanish darajasi	2
10.3. Axborot texnologiyalarning infratuzilmasi	3
11. Ovqatlantirish tizimining mavjud sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq tashkil etilganligi	***40***
11.1. Ovqatlantirish "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida tashkil etilishi	20
11.2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda me'yoriy hamda ish hujjatlarining yuritilishi	20
IV. JAMOATCHILIK VA HAMKORLIK	**30**
12. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik ishlari	***20***
12.1. Kuzatuv kengashi faoliyatining yo'lga qo'yilganligi	6
12.2. Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasining mavjudligi	10
12.3. Boshqa tashkilotlar bilan olib borilayotgan ishlar	4
13. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ishlari	***10***
13.1. Tashkilot faoliyatining OAVlarda yoritilishi	10
JAMI	**500**

Izoh: *Mezonlarga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 25-martdagi 66-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ishchi guruh qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga o‘qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga bilimli, kreativ fikrlaydigan, zamonaviy metodikalarni o‘zlashtirgan, izlanuvchan o‘qituvchilarni tanlov asosida jalb etish orqali o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishni ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga (keyingi o’rinlarda - Yangi Maktablar) pedagoglar ikki bosqichli tanlov asosida ishga qabul qilinishi belgilab qo‘yilsin.

2. Quyidagilar:

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Pedagog kadrlar tanlov asosida ishga qabul qilinadigan yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keying o‘rinlarda - Nizom) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangi maktablarga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish uchun talabgorlarning hujjatlari joriy yilning 25-29-avgust kunlari job.piima.uz sayti orqali qabul qilinsin.

4. Joriy yilning 30-31-avgust kunlari edu.piima.uz platformasida hujjatlari qabul qilingan talabgorlar uchun test sinovlari o‘tkazilsin.

Joriy yilning 31-avgust tanlov yakunlari bo‘yicha natijalar e’lon qilinsin.

5. Tanlovning ikkinchi (test) bosqichi hududlardagi Prezident maktablarida o‘tkazilsin va bunda, har bir Prezident maktabi direktori test sinovlarining shaffof o‘tkazilishi uchun javobgar etib belgilansin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva) Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) bilan birgalikda:

tanlov bosqichlari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi

tizimidagi ta’lim muassasalariga pedagoglarni saralab olish uchun tatbiq etilgan job.piima.uz hamda edu.piima.uz platformalarida tashkil etilishini;

pedagog kadrlar tanlovi jarayonlarining adolatlilik, xolislik va oshkoralik prinsiplari asosida amalga oshirilishini ta’minlasin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari tanlovda ishtirok etish uchun kreativ fikrlaydigan, yuqori kasbiy bilim va mahoratga ega malakali o‘qituvchilarni jalb etsin.

Kelgusida yangidan tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq amalga oshirilsin.

8. Belgilansinki, tanlov natijalariga ko‘ra, pedagoglarni mazkur buyruqning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq, ishga qabul qilinishiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari boshliqlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Devonxona (D. Isakova) bir kun muddatda mazkur buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Axborot xizmati (D. Sobirova) yangi maktablarga o‘qituvchilarni saralab olish bilan bog‘liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari, vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng jamoatchilikka yetkazsin.

11. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 23-avgust,
258-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 23-avgustdagi
258-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul bo‘yicha ISHCHI GURUH TARKIBI

1. U. Sharifxodjayev – Vazirning birinchi o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbari

2. E. Murodov – Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo

3. Z. Togayeva – Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo

4. S. Kazakova – Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i,a’zo

5. R. Musurmonov – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’limi boshlig‘i, a’zo

6. N. Xayitov – Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo

7. N. Ismoilov – Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo

8. D. Davidova – Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi direktori, a’zo

9. Lavozimiga ko‘ra – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, a’zo

10. Lavozimiga ko‘ra – barcha hududlardagi Prezident maktablari rahbarlari, a’zo

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 23-avgustdagi
258-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Pedagog kadrlar tanlov asosida ishga qabul qilinadigan yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablar RO‘YXATI

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Yangi tashkil etilgan maktab joylashgan MFY nomi
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus shahar	Bakshilik MFY (53-maktab)
2	Andijon viloyati	Andijon shahar	Mustaqillik MFY (56-maktab)
3	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	Olmazor MFY (31-maktab)
4	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	Zargarlik MFY (30-maktab)
5	Jizzax viloyati	Zomin tumani	Oqtupa MFY (37-maktab)
6	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	Istiqlol MFY (34-maktab)
7	Qashqadaryo viloyati	Koson tumani	Do’stlik MFY
8	Samarqand viloyati	Urgut tumani	Mergancha MFY
9	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	Navnixol MFY (12-maktab)
10	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	Nuriston MFY (101-maktab)
11	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	Obodon MFY (43-maktab)
12	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	A.Jomiy MFY (100-maktab)
13	Surxondaryo viloyati	Termiz tumani	Guliston MFY (14-maktab)
14	Namangan viloyati	Yangi Namangan tumani	Kelajak tongi MFY (94-maktab)
15	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	Farovon MFY (22-maktab)
16	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	Muruvvat MFY (21-maktab)
17	Navoiy viloyati	Karmana tumani	Yangi O’zbekiston massivi (32-maktab)
18	Farg’ona viloyati	Yozyovon tumani	Yuqori soybo‘yi MFY
19	Toshkent shahri	Yangihayot tumani	Yangi Darxon MFY

Izoh: kelgusida yangi tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga ham pedagog kadrlar tanlov asosida ishga qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 23-avgustdagi
258-son buyrug‘iga
3-ILOVA

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga malakali pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida yangi tashkil etilayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga pedagog kadr lavozimlariga nomzodlarni tanlash, tavsiya etish, ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning maqsadi – yangidan tashkil etilayotgan maktablarga zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori kasbiy bilim va mahoratga, ijodiy va ilmiy salohiyatga, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarga ega malakali pedagog kadrlarni xolisona saralab olishdan iborat.

Tanlov adolatlilik, xolislik va oshkoralik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

3. Yangidan tashkil etilayotgan maktablarning pedagog lavozimlaridagi bo‘sh o‘rinlar uchun tanlov ikki (dastlabki saralash va test) bosqichda o‘tkaziladi.

4. Yangi tashkil etilayotgan maktabning manzili hamda tegishli fanlar ko‘rsatilgan holda tanlov o‘tkazish to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida, Vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon beriladi.

E’londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

tanlov o‘tkazilayotgan maktab manzili va fan nomi;

tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati va ularni qabul qilish muddatlari;

aloqa uchun (call-markaz) telefon raqami;

veb-sayt havolasi.

5. Yangi tashkil etilayotgan maktablardagi bo‘sh o‘rinlarga nomzodlar quyidagi shaxslar qatoridan tanlanadi:

umumta’lim fanlari bo‘yicha oliy pedagogik ma’lumotga ega bakalavr yoki magistr darajasiga ega mutaxassislar;

kamida B2 darajaga ega chet tili o‘qituvchilari;

tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-ax-

loqiy fazilatlarga ega malaka talablariga javob beradigan pedagoglar.

6. Hujjatlarni qabul qilish muddati tugagandan keyin nomzodlarga tanlov o‘tkazish kuni va joyi haqida ma’lumot yetkaziladi.

Tanlovga kelmagan nomzodlar uchun qo‘shimcha tanlov o‘tkazilmaydi.

7. Nomzodlardan qonunchilik hujjatlarida talab qilinishi bekor qilingan hujjatlar va ularning nusxalarini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi

8. Tanlov jarayonlari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o’rinlarda - Agentlik) huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy- amaliy markazi (keyingi o’rinlarda - Markaz) tomonidan tashkil etiladi.

9. Markaz tomonidan dastlabki bosqichda nomzodlarga oid hujjatlar jamlanmasini o‘rganish va saralash bo‘yicha ishchi guruh tashkil etiladi.

10. Saralash bosqichida ishchi guruh tomonidan e’londa belgilangan hujjatlar qabul qilish muddati davomida nomzodlarning hujjatlari ushbu nizomga hamda lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq kelishi, ish va o‘qish joyidan nomzod haqidagi ma’lumotlar dastlabki tarzda o‘rganib chiqiladi.

11. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar tahrirga yuborilganda nomzodlarga ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun hujjatlar qabul qilish muddati tugagunga qadar to‘g‘rilashga ruxsat beriladi.

12. Quyidagi hollarda tanlovda ishtirok etish rad etiladi:

nomzod tomonidan talablarga mos ravishda ishga kirish uchun hujjatlar o‘z vaqtida to‘liq taqdim qilinmaganda;

bila turib qalbaki hujjatlar yoki yolg‘on ma’lumotlar taqdim etganda;

sudning hukmiga ko‘ra pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi man etilganligi aniqlanganda.

13. Tanlovning saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar ikkinchi (test) bosqichda ishtirok etadilar.

Test bosqichida nomzodlarning o‘quv fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari, ularning mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanadi.

14. Test savollari majmui Markaz tomonidan ishlab chiqiladi.

15. Test sinovlari internet jahon axborot tarmog‘iga ulangan kompyuterlar bilan ta’minlangan maxsus o‘quv auditoriyalarida o‘tkaziladi.

16. Test sinovlari Agentlik tomonidan o‘tkaziladi. Test savollari va

ularning javoblari Agentlik serverlarida saqlanadi.

17. Test savollari ko‘p variantlilik asosida 25 ta savoldan iborat bo‘ladi.

Nomzodlarga test savollariga javob berish uchun aniq va tabiiy fanlar uchun (jumladan, matematika, informatika, fizika, kimyo va biologiya) 60 daqiqa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun 40 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to‘g‘ri bajarilgan test savoli 4 ball bilan baholanadi. Ikkinchi bosqich uchun maksimal 100 ball beriladi.

18. Quyidagi holatlar nomzodlarni test jarayonidan chetlashtirilishiga asos bo‘ladi:

qonun hujjatlaridan, ma’lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma’lumotlardan) foydalanish;

boshqa shaxslar bilan suhbatlashish;

ekranda test javobi aks etgunga qadar test savollari o‘tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqish;

Ushbu holatlarda nizomning ilovasiga muvofiq shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

19. Test natijalariga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar ballar ketma-ketligida, shu bilan birgalikda, yangi tashkil etilayotgan maktablarning fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarga ehtiyojidan kelib chiqqan holda asosiy ish o‘rni bo‘yicha ishga qabul qilinadi.

Ballar teng kelib qolganda, talabgorlarning malaka toifasi, ish staji, shuningdek, o‘z fani bo‘yicha qo‘lga kiritgan yutuqlarga (sertifikat, diplom va h.k) ega nomzodga ustunlik beriladi.

60 balldan kam natija ko‘rsatgan nomzodlarni ishga qabul qilish rad etiladi.

19. Test natijalariga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar ballar ketma-ketligida yangi tashkil etilayotgan maktablarning fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarga ehtiyojidan kelib chiqqan holda asosiy ish o‘rniga ega bo‘lmagan nomzodlar ishga qabul qilinadi.

60 ball va undan yuqori natija ko‘rsatgan nomzodlarni ishga qabul qilish tavsiya etiladi.

56-59 ball to‘plagan nomzodlar zahiraga olinadi.

56 balldan kam natija ko‘rsatgan nomzodlar ishga qabul qilish rad etiladi.

Ballar teng kelib qolganda, quyidagi ketma-ketlik asosida nomzodlarga ustunlik beriladi:

- malaka toifasi;
- pedagogik ish staji;
- o‘z fani bo‘yicha erishgan yutuqlari (sertifikat, diplom va h.k).

20. Tanlov natijalari Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

21. Test natijalariga asosan tanlovdan o‘tgan nomzod bilan maktab direktori belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzadi va buyruq bilan ishga qabul qiladi.

22. Ishga taklif etilgan nomzod rad javobini bergan taqdirda maktab direktori tomonidan zaxiraga olingan nomzod o‘rnatilgan tartibda ishga qabul qilinadi. Bunda tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

23. Tanlovdan o‘tgan nomzodlar va zaxiraga olingan pedagog kadrlar yangi tashkil qilingan boshqa umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi bo‘sh o‘rinlarga tanlovsiz ishga qabul qilinadi yoki umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi vakant o‘rinlar uchun tavsiya etiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoida

24. Tanlov yakunlari bo‘yicha apellatsiya arizalari qabul qilinmaydi.

25. Nomzodlarni tanlovdan o‘tkazish bilan bog‘liq mehnat nizolari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

26. Tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan nomzodlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat yoki shikoyat qilishi mumkin.

27. Mazkur nizomda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Yangi tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga malakali pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizomga
ILOVA

Tanlovdan chetlashtirish haqida
DALOLATNOMA

2023-yil “ ” - Toshkent shahri

Biz, quyida imzo chekuvchilar shuni tasdiqlaymizki, nomzod
(nomzodning F.I.SH.)

Quyidagi sabablarga ko‘ra tanlovdan soat : da chetlatildi *(keraklisini tagiga chiziladi)*:

qonun hujjatlaridan, ma’lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma’lumotlardan) foydalandi;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashdi;

ekranda test natijalari ko’ringunga qadar test sinovi o‘tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqdi.

Nomzod tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida yangi tashkil etilayotgan maktablarga malakali pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizomning 18-bandi talablari buzildi.

(imzo) (F.I.SH.)

(imzo) (F.I.SH.)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-maydagi 125-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

a) Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarining (maktab va maktab-internatlar) (keyingi o‘rinlarda - ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalari 1-13-ilovalarga muvofiq;

b) jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalari 14-18-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Joriy o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqni barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga yetkazish;

o‘quv jarayonini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tayanch o‘quv rejalari va tushuntirish xatlari asosida tashkil etilishini hamda ularning to‘liq bajarilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 26-avgustdagi “Alohida

ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab- internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 282-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev hamda vazir o‘rinbosari D. Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 26-avgust,
266-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tartibini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq, davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega rahbar kadrlar bilan tayinlashni tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva), Maktabgacha ta’lim tizimini muvofiqlashtirish bo‘limi (F. Keldibekov) **bir hafta muddatda** Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini tashkillashtirsin.

3. Mazkur buyruq bilan Maktabgacha ta’lim agentligining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligiga kelishib olish uchun kiritilgan lavozimlarga nomzodlarni tavsiya etish va ularni lavozimdan ozod etish ishlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha vaqtinchalik nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 23-iyundagi 66-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Devonxona (D. Isxakova*)* **bir kun** muddatda ushbu buyruqni buyruqni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari - Maktabgacha ta’lim agentligi direktori A. Shin zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
269-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Direktorlar kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega rahbar kadrlar bilan tayinlashni tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Direktorlar kengashi to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq, Direktor lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish tartibi 2-ilovaga muvofiq, Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorining malaka tavsiflari 3-ilovaga, Direktorlar kengashlari tarkibi 4-17-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva), Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E. Murodov), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N. Kuchkarova) **bir hafta muddatda** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Direktorlar kengashi to‘g‘risida nizom mazmun-mohiyatini hududiy boshqarmalar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar va xodimlariga tushuntirish ishlarini tashkillashtirsin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A. Ismailov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’limi (R. Musurmonov), Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti direktori (S. Radjabov), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva) bilan birgalikda ikki hafta muddatda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktori lavozimiga nomzodlarni tanlash jarayoni “O‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi” maxsus elektron portali orqali amalga oshirilishini inobatga olib, ushbu portalni takomillashtirish choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 10-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralashdan o‘tkazish va xalq deputat-

lari tuman (shahar) Kengashlariga tavsiya etish tartibi to‘g‘risida”gi 143-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Axborot xizmati (D. Sobirova) Direktorlar kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yilayotganligi vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

6. Devonxona (D. Isxakova*)* **bir kun** muddatda ushbu buyruqni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, boshqarma va bo‘limlar hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U. Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
270-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni tayyorlov o‘quv kurslari bitiruvchilariga sertifikatlarini berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni va “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Menejerlik o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida” 2023-yil 15-maydagi 124-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan menejerlik o‘quv kurslari bitiruvchilari — umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash natijasi bo‘yicha ularga umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni tayyorlash kursini tamomlaganlik to‘g‘risidagi sertifikatni berish maqsadida **buyuraman:**

1. Joriy yilning 5-27-iyun kunlari A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida menejerlik o‘quv kursi (keyingi o‘rinlarda - o‘quv kursi) tajriba-sinov tariqasida tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamda Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazining 2023-yil 17-avgustdagi 01/09-300-sonli va 01-03/02-101-sonli xati bilan o‘quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan nomzodlarga sertifikat berish to‘g‘risidagi taklifi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni tayyorlash kursini tamomlaganlik to‘g‘risidagi sertifikatning namunaviy shakli 1-ilovaga muvofiq;

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlikka tayyorlash o‘quv kursi”ning dasturini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi

metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A. Ismailov) 5 kun muddatda o‘quv kursi bitiruvchilariga sertifikatlar berilishini ta’minlasin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z. Togayeva) o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan nomzodlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga zaxira kadrlar ro‘yxatiga kiritsin.

6. Axborot xizmati (D. Sobirova) o‘quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan nomzodlarga sertifikatlarni berish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

7. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni tegishli boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalarga hamda tegishli tashkilotlarga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U. Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
271-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in-texnikkomissiyasi va ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-sentabrdagi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2013-yil 28-martdagi 89-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining yong‘in-texnik komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi tarkibi 2-ilovagamuvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yong‘in-texnik komissiyasi vazifalari 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in texnik komissiyasining joriy yil IV choragi uchun yong‘in xavfsizligi holati yuzasidan tekshiruvini (monitoring) o‘tkazish reja-jadvali 4-ilovaga muvofiq;

ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining huquqlari va majburiyatlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog’iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari 10 kun muddat ichida yong‘in-texnik komissiyasi va ko‘ngilli yong‘in o‘chirish drujinasi tarkiblarini tuzish choralarini ko‘rsin.

3. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T. Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**
Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
272-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 29-avgustdagi
272-son buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining yong‘in-texnik komissiyasi
TARKIBI

T/r	Yong‘in-texnik komissiyasi bo‘yicha lavozim:	Familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi
1.	Komissiya raisi	T. Komilov	Vazir o‘rinbosari
2.	Komissiya raisi o‘rinbosari	A. Shernazarov	Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i
3.	Komissiya a’zosi	A. Xolmuhamedov	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi
4.	Komissiya a’zosi	X. Xamidov	Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis-bosh mutaxassisi
5.	Komissiya a’zosi	O. Dauletbaev	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi bosh mutaxassisi

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ko‘ngilli ong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi

TARKIBI

T/r	Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi bo‘yicha lavozim	Familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi
1.	Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi komandiri	S. Maxmayev	Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisi
2.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	E. Axmadaliyev	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi
3.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	K. Xabibullayev	Xo‘jalik bo‘limi kompyuterlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimi
4.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	N. Sayfiddinov	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi
5.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	J. Amonov	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ish haqini moliyalashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi

6.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	M. Mamajonov	Infratuzilmani rivojlantirish va binolarni ekspluatatsiya qilish bo‘limi yetakchi mutaxassisi
7.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	Q. Almardanov	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi
8.	Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi	B. Bekmatov	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi II darajali ish yurituvchi kotib

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 29-avgustdagi
272-son buyrug‘iga
3-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yong‘in-texnik komissiyasining funksiyalari

1. Quyidagilar yong‘in texnik komissiyasining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

Vazirlikning tegishli bo‘linmalari vakillari bilan birgalikda vazirlikning omborxona, ma’muriy va boshqa xizmat xonalari, jihozlarini yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan yiliga kamida 2 marotaba yong‘in-texnik tekshiruvidan o‘tkazish;

Vazirlikning rahbariyati, boshqarmalar va boshqa bo‘lim boshliqlari bilan birgalikda vazirlikda yong‘inlarning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish, shuningdek, rejalashtirilgan tadbirlarni bajarishda tashkiliy yordam ko‘rsatish;

yong‘in xavfsizligi choralari to‘g‘risidagi yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va kelishish;

Vazirlik binosida yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qoidalar, plakatlar va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar bilan ta’minlashni tashkil etish;

Vazirlikda yong‘in xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha seminarlar o‘tkazish;

Vazirlikda yong‘inga qarshi tashviqot va targ‘ibot ishlarini tashkil qilish, vazirlik omborxonalarining yong‘inga qarshi holati va ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining yong‘inlarni o‘chirishga tayyorgarlik ko‘riklarini o‘tkazishni, shuningdek, FVV huzuridagi yong‘in inspeksiyasining yozma ko‘rsatmalarida tavsiya qilingan yong‘inga qarshi tadbirlarning bajarilishini tekshirishni tashkil etish;

Vazirlikda sodir bo‘lgan yong‘in faktlarini tekshirishda qatnashish. Shunga o‘xshash holatlarning oldini olish uchun ularning sabablarini aniqlash va asosli xulosalar tayyorlash, dalolatnoma tuzish;

Vazirlik xodimlarini yong‘in xavfsizligi bo‘yicha kuchga kiritilayotgan yangi qonun hujjatlari va boshqa normativ-hujjatlardan xabardor qilish;

Birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan, yong‘inni o‘chirish va undan xabar berish avtomatik tizimlaridan to‘g‘ri foydalanilishi va ularning saqlanishini;

yong‘indan xabar berish va uni o‘chirish avtomatik tizimlari, tu-

tunga qarshi himoya, ichki yong‘inga qarshi suv quvurlari, yong‘in haqida ogohlantirish tizimlari ishlarining samaradorligini;

yong‘inga qarshi o‘qitish, bilimlarni tekshirish va barcha turdagi yo‘l-yo‘riqlar berishning o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini;

hujjatlarning (vazirlik markaziy apparat binosini yong‘inga qarshi holatini tekshirish dalolatnomalari, yong‘in holatlari bo‘yicha tekshiruvlar dalolatnomalari, komissiyaning ish rejalari va shu kabilarning) saqlanishini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 29-avgustdagi
272-son buyrug‘iga
5-ILOVA

Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining huquqlari va majburiyatlari

1. Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlik hududida DYOXX mahalliy organi bilan birgalikda yong‘in xavfsizligini ta’minlash faoliyatida ishtirok etish;

yong‘inlar tarqalgan (tarqalishi ehtimoli bo‘lgan) va ularni paydo qiladigan joylarga kirib borish;

yong‘inga olib keladigan yong‘indan xavfli va shunga o‘xshash ishlarning vazirlik rahbariyati yoki DYOXX mahalliy organi tomonidan ko‘rib chiqilgunga qadar olib borilishini taqiqlash.

Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar quyidagilarga majbur:

DYOXX tomonidan tasdiqlangan, ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarni dastlabki tayyorgarlikdan o‘tkazish dasturida nazarda tutilgan hajmda zarur yong‘in-texnik bilimlarga ega bo‘lish;

yong’in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta’minlashda ishtirok etish;

yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi, shuningdek yong‘inga olib keladigan yong‘indan xavfli va boshqa ishlarning olib borilishi holatlari aniqlanganda ular to‘g‘risida vazirlik rahbariyatiga, shuningdek DYOXX mahalliy organlariga xabar berish;

ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarga qo‘yiladigan talablarni bajarish;

sababli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan, yong‘in o‘chirishda qatnashgan ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan ozod qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 30-sentabrdagi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to’g’risida” 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) markaziy apparat binosida yong‘in xavfsizligi uchun:

texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlash va foydalanish uchun mas’ul shaxs etib Xo’jalik bo‘limi boshlig‘i A. Shernazarov;

ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimining holatini nazorat qilish Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisi S. Maxmayev mas’ul shaxslar etib belgilansin.

2. Xo‘jalik bo‘limi (A. Shernazarov) texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlanishiva foydalanishini ta’minlansin.

3. Xo‘jalik bo‘limi (S. Maxmayev)ga ixtiyoriy shakldagi dalolatnomani tuzgan holda berkitish armaturalarini ko‘zdan kechirish, yong‘inni o‘chirish yenglari o‘ramalarini quritish (zarur hollarda) va qayta o‘ralishi ta’minlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari 10 kun muddat ichida binolarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlash va foydalanish hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimining holatini nazorat qilish uchun mas’ul shaxslarni tayinlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rsin.

5. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va

bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T. Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
273-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 160-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda bosqichma-bosqich inklyuziv ta’lim tizimini umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida joriy qilish maqsadida **buyuraman**:

1. Davlat dasturi doirasida 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab har bir tuman (shahar)da kamida bittadan inklyuziv maktablar tashkil etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan tanlab olingan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - maktablar) 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab inklyuziv maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

3. 2023-2024-o‘quv yilidan har bir tuman (shahar)da inklyuziv maktab tashkil etiladigan maktablar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab inklyuziv ta’lim ko‘lamini kengaytirish hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga xalqaro standartlar asosida sifatli ta’lim berish maqsadida Toshkent shahridagi 191- va 298-sonli umumta’lim maktablari negizida namunaviy inklyuziv maktablar (keyingi o‘rinlarda - namunaviy inklyuziv maktablar) faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

namunaviy inklyuziv maktablar respublikada faoliyat yuritayotgan barcha inklyuziv maktablar uchun tayanch inklyuziv maktab hisoblanadi.

5. Quyidagilar namunaviy inklyuziv maktabning asosiy vazifalari etib belgilansin:

inklyuziv maktablarda ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar, ularning ota-onalari va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

inklyuziv ta’lim bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishiga ko‘maklashish hamda ilg‘or ta’lim metodikalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

inklyuziv ta’limni pedagog xodimlar, ota-onalar hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar, shuningdek, aholi o‘rtasida targ‘ib qilish.

6. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlashtirish bo‘limi (S. Xoliqov) Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q. Oqilov), hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N. Xusanbayeva) bilan birgalikda uch kun muddatda namunaviy inklyuziv maktablarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo‘lishini ta’minlash maqsadida ushbu maktablarda zamonaviy talablar asosida ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun dastlabki hisob-kitob ma’lumotlarini vazirlik rahbariyatiga kiritsin.

7. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi (S. Xoliqov) Moliya-iqtisod departamenti (I. Siradjev) bilan birgalikda **2023-2024-o‘quv yili** davomida inklyuziv ta’lim tashkil etilgan namunaviy inklyuziv maktablariga amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratish choralarini ko‘rsin.

8. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N. Xusanbayeva) namunaviy inklyuziv maktablarni qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlari yakuni bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinishi hamda ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yilishini ta’minlasin.

9. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L. Gaynutdinova), Respublika ta’lim markazi (Sh. Sattorov), Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi (S. Xoliqov) **ikki hafta muddatda:**

namunaviy inklyuziv maktablar hamda hududlardagi inklyuziv maktablarda ta’lim-tarbiya olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan (adaptiv) o‘quv dasturlarini yaratsin va joylarga yetkazish choralarini ko‘rsin;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan maktablar direktorlari va o‘qituvchilari uchun qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etsin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab

ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

bir oy muddatda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda har bir tuman (shahar)da tashkil etilgan inklyuziv maktablarni zamonaviy talablar asosida qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish choralarini ko‘rsin;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tomonidan bolalarni inklyuziv maktablarga qabul qilish uchun yo‘llanmalar berishda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv maktablarga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxatiga qat’iy amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatsin;

2023-2024-o‘quv yilidan har bir tuman (shahar)da tashkil etilgan inklyuziv maktablarga alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflariga qabul qilinishini ta’minlasin;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda ota-onalar o‘rtasida inklyuziv ta’lim tizimi hamda inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida targ‘ibot va tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

11. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi (S. Xoliqov) maktablardagi inklyuziv ta’lim tizimining ijobiy natijalari asosida respublikaning boshqa hududlarida inklyuziv maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rib borsin.

12. Axborot xizmati (D. Sobirova) inklyuziv ta’lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy-veb sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng targ‘ib etib borsin.

13. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda hududiy boshqarma va bo‘limlarga yetkazilishini ta’minlasin.

14. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D. Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
274-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 29-avgustdagi
274-sonli buyrug‘iga
ILOVA

2023-2024-o‘quv yilidan tuman (shahar)da inklyuziv maktabi tashkil etiladigan umumta’lim maktablari RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Umumta’lim maktabi raqami
Qoraqalpog’iston Respublikasi		
	Nukus shahar	3-sonli umumta’lim maktabi
		8-sonli umumta’lim maktabi
	Amudaryo tumani	34-sonli umumta’lim maktabi
		45-sonli umumta’lim maktabi
	Beruniy tumani	41-sonli umumta’lim maktabi
		49-sonli umumta’lim maktabi
	Bo‘zatov tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		7-sonli umumta’lim maktabi
	Kegeyli tumani	9-sonli umumta’lim maktabi
		19-sonli umumta’lim maktabi
	Qonliko‘l tumani	2-sonli umumta’lim maktabi
		18-sonli umumta’lim maktabi
	Qorao‘zak tumani	8-sonli umumta’lim maktabi
		28-sonli umumta’lim maktabi
	Qo‘ng‘irot tumani	37-sonli umumta’lim maktabi
		53-sonli umumta’lim maktabi
	Mo‘ynoq tumani	2-sonli umumta’lim maktabi
		3-sonli umumta’lim maktabi

	Nukus tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		17-sonli umumta'lim maktabi
	Taxiatosh tumani	2-sonli umumta'lim maktabi
		3-sonli umumta'lim maktabi
	Taxtako'pir tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		4-sonli umumta'lim maktabi
	To'rtko'l tumani	45-sonli umumta'lim maktabi
		10-sonli umumta'lim maktabi
	Xo'jayli tumani	6-sonli umumta'lim maktabi
		28-sonli umumta'lim maktabi
	Chimboy tumani	36-sonli umumta'lim maktabi
		40-sonli umumta'lim maktabi
	Sho'manoy tumani	16-sonli umumta'lim maktabi
		32-sonli umumta'lim maktabi
	Ellikqal'a tumani	11-sonli umumta'lim maktabi
		22-sonli umumta'lim maktabi
Andijon viloyati		
	Andijon shahar	32-sonli umumta'lim maktabi
		8-sonli umumta'lim maktabi
	Xonobod shahar	4-sonli umumta'lim maktabi
	Andijon tumani	53-sonli umumta'lim maktabi
	Asaka tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
	Baliqchi tumani	34-sonli umumta'lim maktabi
		44-sonli umumta'lim maktabi
	Buloqboshi tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
	Bo'ston tumani	61-sonli umumta'lim maktabi
		3-sonli umumta'lim maktabi
	Jalaquduq tumani	25-sonli umumta'lim maktabi

	Izboskan tumani	9-sonli umumta'lim maktabi
		28-sonli umumta'lim maktabi
	Marhamat tumani	23-sonli umumta'lim maktabi
	Oltinko'l tumani	13-sonli umumta'lim maktabi
	Paxtaobod tumani	2-sonli umumta'lim maktabi
		9-sonli umumta'lim maktabi
		27-sonli umumta'lim maktabi
	Ulug'nor tumani	15-sonli umumta'lim maktabi
	Shahrixon tumani	24-sonli umumta'lim maktabi
		51-sonli umumta'lim maktabi
	Qo'rg'ontepa tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		45-sonli umumta'lim maktabi
	Xo'jaobod tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
Buxoro viloyati		
	Buxoro shahar	34-sonli umumta'lim maktabi
		16-sonli umumta'lim maktabi
	Kogon shahar	3-sonli umumta'lim maktabi
		9-sonli umumta'lim maktabi
	Buxoro tumani	17-sonli umumta'lim maktabi
		8-sonli umumta'lim maktabi
	Vobkent tumani	20-sonli umumta'lim maktabi
		7-sonli umumta'lim maktabi
	Jondor tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		45-sonli umumta'lim maktabi
	Olot tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		6-sonli umumta'lim maktabi
	Peshku tumani	9-sonli umumta'lim maktabi
		31-sonli umumta'lim maktabi

	Romitan tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		37-sonli umumta'lim maktabi
	Kogon tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		5-sonli umumta'lim maktabi
	Shofirkon tuman	4-sonli umumta'lim maktabi
		54-sonli umumta'lim maktabi
	Qorako'l tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		15-sonli umumta'lim maktabi
	Qorovulbozor tumani	2-sonli umumta'lim maktabi
	G'ijduvon tumani	11-sonli umumta'lim maktabi
		8-sonli umumta'lim maktabi
Jizzax viloyati		
	Arnasoy tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		19-sonli umumta'lim maktabi
	Baxmal tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		50-sonli umumta'lim maktabi
	G'allaorol tumani	44-sonli umumta'lim maktabi
		20-sonli umumta'lim maktabi
	Do'stlik tumani	4-sonli umumta'lim maktabi
		16-sonli umumta'lim maktabi
	Sharof Rashidov tumani	12-sonli umumta'lim maktabi
		20-sonli umumta'lim maktabi
	Zomin tumani	65-sonli umumta'lim maktabi
		75-sonli umumta'lim maktabi
	Zarbdor tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		32-sonli umumta'lim maktabi
	Zafarobod tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		7-sonli umumta'lim maktabi

	Paxtakor tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		7-sonli umumta'lim maktabi
	Mirzacho'l tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		18-sonli umumta'lim maktabi
	Forish tumani	30-sonli umumta'lim maktabi
		59-sonli umumta'lim maktabi
	Yangiobod tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		11-sonli umumta'lim maktabi
	Jizzax shahar	22-sonli umumta'lim maktabi
		14-sonli umumta'lim maktabi
Qashqadaryo viloyati		
	G'uzor tuman	22-sonli umumta'lim maktabi
		53-sonli umumta'lim maktabi
	Dehqonobod tuman	11-sonli umumta'lim maktabi
		22-sonli umumta'lim maktabi
	Qamashi tuman	7-sonli umumta'lim maktabi
		91-sonli umumta'lim maktabi
	Qarshi tuman	65-sonli umumta'lim maktabi
		4-sonli umumta'lim maktabi
	Qarshi shahar	8-sonli umumta'lim maktabi
		30-sonli umumta'lim maktabi
	Kasbi tuman	55-sonli umumta'lim maktabi
		56-sonli umumta'lim maktabi
	Kitob tuman	12-sonli umumta'lim maktabi
		81-sonli umumta'lim maktabi
	Koson tuman	9-sonli umumta'lim maktabi
		6-sonli umumta'lim maktabi

	Ko‘kdala tuman	3-sonli umumta’lim maktabi
		78-sonli umumta’lim maktabi
	Mirishkor tuman	5-sonli umumta’lim maktabi
		11-sonli umumta’lim maktabi
	Muborak tuman	4-sonli umumta’lim maktabi
		5-sonli umumta’lim maktabi
	Nishon tuman	18-sonli umumta’lim maktabi
		20-sonli umumta’lim maktabi
	Chiroqchi tuman	5-sonli umumta’lim maktabi
		70-sonli umumta’lim maktabi
	Shahrisabz tuman	32-sonli umumta’lim maktabi
		48-sonli umumta’lim maktabi
	Shahrisabz shahar	18-sonli umumta’lim maktabi
		19-sonli umumta’lim maktabi
	Yakkabog‘ tuman	52-sonli umumta’lim maktabi
		75-sonli umumta’lim maktabi
Navoiy viloyati		
	Navoiy shahar	5-sonli umumta’lim maktabi
		16-sonli umumta’lim maktabi
	Zarafshon shahar	1-sonli umumta’lim maktabi
	G‘ozg‘on shahar	1-sonli umumta’lim maktabi
	Karmana tumani	11-sonli umumta’lim maktabi
		21-sonli umumta’lim maktabi
	Qiziltepa tuman	8-sonli umumta’lim maktabi
		29-sonli umumta’lim maktabi
	Qiziltepa tuman	41-sonli umumta’lim maktabi
	Nurota tuman	22-sonli umumta’lim maktabi
		27-sonli umumta’lim maktabi

	Navbahor tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		5-sonli umumta'lim maktabi
	Xatirchi tumani	12-sonli umumta'lim maktabi
	Konimex tumani	7-sonli umumta'lim maktabi
		23-sonli umumta'lim maktabi
		25-sonli umumta'lim maktabi
Namangan viloyati		
	Namangan shahar	4-sonli umumta'lim maktabi
		36-sonli umumta'lim maktabi
	Davlatobod tuman	72-sonli umumta'lim maktabi
		56-sonli umumta'lim maktabi
	Yangi Namangan tuman	2-sonli umumta'lim maktabi
		65-sonli umumta'lim maktabi
	Mingbuloq tuman	8-sonli umumta'lim maktabi
		38-sonli umumta'lim maktabi
	Kosonsoy tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
		54-sonli umumta'lim maktabi
	Namangan tumani	8-sonli umumta'lim maktabi
		22-sonli umumta'lim maktabi
	Norin tumani	27-sonli umumta'lim maktabi
		34-sonli umumta'lim maktabi
	Pop tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
		34-sonli umumta'lim maktabi
	To‘raqo‘rg‘on tumani	13-sonli umumta'lim maktabi
		23-sonli umumta'lim maktabi
	Uychi tumani	26-sonli umumta'lim maktabi
		37-sonli umumta'lim maktabi

	Uchqo‘rg‘on tumani	21-sonli umumta’lim maktabi
		36-sonli umumta’lim maktabi
	Chust tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		58-sonli umumta’lim maktabi
	Chortoq tumani	9-sonli umumta’lim maktabi
		10-sonli umumta’lim maktabi
	Yangiqo‘rg‘on tumani	64-sonli umumta’lim maktabi
		20-sonli umumta’lim maktabi
Samarqand viloyati		
	Samarqand shahar	13-sonli umumta’lim maktabi
		45-sonli umumta’lim maktabi
	Kattaqo‘rg‘on shahar	8-sonli umumta’lim maktabi
		3-sonli umumta’lim maktabi
	Bulung‘ur tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		2-sonli umumta’lim maktabi
	Jomboy tumani	22-sonli umumta’lim maktabi
		56-sonli umumta’lim maktabi
	Ishtixon tuman	35-sonli umumta’lim maktabi
		41-sonli umumta’lim maktabi
	Kattaqo‘rg‘on tuman	13-sonli umumta’lim maktabi
		34-sonli umumta’lim maktabi
	Qo‘shrabot tumani	32-sonli umumta’lim maktabi
		88-sonli umumta’lim maktabi
	Nurobod tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		41-sonli umumta’lim maktabi
	Narpay tumani	13-sonli umumta’lim maktabi
		17-sonli umumta’lim maktabi

	Oqdaryo tuman	28-sonli umumta'lim maktabi
		45-sonli umumta'lim maktabi
	Pastdarg'om tumani	75-sonli umumta'lim maktabi
		82-sonli umumta'lim maktabi
	Payariq tumani	6-sonli umumta'lim maktabi
		78-sonli umumta'lim maktabi
	Paxtachi tuman	23-sonli umumta'lim maktabi
		32-sonli umumta'lim maktabi
	Samarqand tuman	33-sonli umumta'lim maktabi
		38-sonli umumta'lim maktabi
	Toyloq tuman	5-sonli umumta'lim maktabi
		46-sonli umumta'lim maktabi
	Urgut tuman	56-sonli umumta'lim maktabi
		84-sonli umumta'lim maktabi
Sirdaryo viloyati		
	Boyovut tumani	17-sonli umumta'lim maktabi
		27-sonli umumta'lim maktabi
	Mirzaobod tumani	7-sonli umumta'lim maktabi
	Yangiyer shahar	7-sonli umumta'lim maktabi
	Sayxunobod tumani	35-sonli umumta'lim maktabi
	Sirdaryo tumani	6-sonli umumta'lim maktabi
	Sardoba tumani	16-sonli umumta'lim maktabi
Surxondaryo viloyati		
	Angor tumani	24-sonli umumta'lim maktabi
		26-sonli umumta'lim maktabi
	Bandixon tumani	29-sonli umumta'lim maktabi
		40-sonli umumta'lim maktabi

	Boysun tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		2-sonli umumta'lim maktabi
		31-sonli umumta'lim maktabi
		33-sonli umumta'lim maktabi
	Denov tumani	35-sonli umumta'lim maktabi
		81-sonli umumta'lim maktabi
	Oltinsoy tumani	12-sonli umumta'lim maktabi
		49-sonli umumta'lim maktabi
	Termiz tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		30-sonli umumta'lim maktabi
		12-sonli umumta'lim maktabi
	Sho'rchi tumani	28-sonli umumta'lim maktabi
		61-sonli umumta'lim maktabi
	Sherobod tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
	Sherobod tumani	48-sonli umumta'lim maktabi
	Qiziriq tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		12-sonli umumta'lim maktabi
	Termiz shahar	11-sonli umumta'lim maktabi
		23-sonli umumta'lim maktabi
	Jarqo'rg'on tumani	23-sonli umumta'lim maktabi
		42-sonli umumta'lim maktabi
	Muzrabot tumani	8-sonli umumta'lim maktabi
		21-sonli umumta'lim maktabi
	Sariosiyo tumani	7-sonli umumta'lim maktabi
		20-sonli umumta'lim maktabi
	Uzun tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		54-sonli umumta'lim maktabi

	Qumqo‘rg‘on tumani	2-sonli umumta’lim maktabi
		5-sonli umumta’lim maktabi
Toshkent viloyati		
	Angren shahar	7-sonli umumta’lim maktabi
		17-sonli umumta’lim maktabi
	Bekobod shahar	6-sonli umumta’lim maktabi
		17-sonli umumta’lim maktabi
	Olmaliq shahar	15-sonli umumta’lim maktabi
		3-sonli umumta’lim maktabi
		17-sonli umumta’lim maktabi
		7-sonli umumta’lim maktabi
	Ohangaron shahar	1-sonli umumta’lim maktabi
		3-sonli umumta’lim maktabi
	Nurafshon shahar	25-sonli umumta’lim maktabi
	Chirchiq shahar	1-sonli umumta’lim maktabi
		11-sonli umumta’lim maktabi
	Yangiyo‘l shahar	4-sonli umumta’lim maktabi
	Bekobod tumani	4-sonli umumta’lim maktabi
		55-sonli umumta’lim maktabi
	Bo‘ka tumani Bo‘ka tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		24-sonli umumta’lim maktabi
		32-sonli umumta’lim maktabi
	Bo‘stonliq tumani	22-sonli umumta’lim maktabi
	Zangiota tumani	16-sonli umumta’lim maktabi
		42-sonli umumta’lim maktabi
	Qibray tumani	39-sonli umumta’lim maktabi
		5-sonli umumta’lim maktabi

	Quyichirchiq tumani	26-sonli umumta'lim maktabi
		11-sonli umumta'lim maktabi
	Oqqo'rg'on tumani	7-sonli umumta'lim maktabi
		11-sonli umumta'lim maktabi
	Ohangaron tumani	52-sonli umumta'lim maktabi
	Parkent tumani	19-sonli umumta'lim maktabi
		20-sonli umumta'lim maktabi
	Piskent tumani	8-sonli umumta'lim maktabi
		28-sonli umumta'lim maktabi
	O'rtachirchiq tumani	67-sonli umumta'lim maktabi
		24-sonli umumta'lim maktabi
	Toshkent tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		11-sonli umumta'lim maktabi
	Chinoz tumani	13-sonli umumta'lim maktabi
		24-sonli umumta'lim maktabi
	Yuqorichirchiq tumani	10-sonli umumta'lim maktabi
	Yangiyo'l tumani	13-sonli umumta'lim maktabi
		45-sonli umumta'lim maktabi
Farg'ona viloyati		
	Quvasoy shahar	5-sonli umumta'lim maktabi
		22-sonli umumta'lim maktabi
	Yozyovon tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		14-sonli umumta'lim maktabi
	Dang'ara tumani	28-sonli umumta'lim maktabi
		34-sonli umumta'lim maktabi
	Oltiariq tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		29-sonli umumta'lim maktabi

	Beshariq tumani	3-sonli umumta'lim maktabi
		44-sonli umumta'lim maktabi
	Farg'ona tumani	33-sonli umumta'lim maktabi
		14-sonli umumta'lim maktabi
	Furqat tumani	26-sonli umumta'lim maktabi
		18-sonli umumta'lim maktabi
	Uchko'prik tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		4-sonli umumta'lim maktabi
	Toshloq tumani	2-sonli umumta'lim maktabi
		4-sonli umumta'lim maktabi
	Marg'ilon shahar	4-sonli umumta'lim maktabi
		23-sonli umumta'lim maktabi
	Rishton tumani	35-sonli umumta'lim maktabi
		52-sonli umumta'lim maktabi
	Quva tumani	2-sonli umumta'lim maktabi
		41-sonli umumta'lim maktabi
	Qo'qon shahar	30-sonli umumta'lim maktabi
		2-sonli umumta'lim maktabi
	Farg'ona shahar	17-sonli umumta'lim maktabi
		26-sonli umumta'lim maktabi
	Qo'shtepa tumani	17-sonli umumta'lim maktabi
		38-sonli umumta'lim maktabi
	Buvayda tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		49-sonli umumta'lim maktabi
	O'zbekiston tumani	8-sonli umumta'lim maktabi
		24-sonli umumta'lim maktabi
	So'x tumani	1-sonli umumta'lim maktabi
		27-sonli umumta'lim maktabi

	Bog‘dod tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		35-sonli umumta’lim maktabi
Xorazm viloyati		
	Urganch shahar	8-sonli umumta’lim maktabi
		22-sonli umumta’lim maktabi
	Xiva shahar	8-sonli umumta’lim maktabi
		16-sonli umumta’lim maktabi
	Bog‘ot tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		49-sonli umumta’lim maktabi
	Gurlan tumani	31-sonli umumta’lim maktabi
		16-sonli umumta’lim maktabi
	Qo‘shko‘pir tumani	2-sonli umumta’lim maktabi
		4-sonli umumta’lim maktabi
	Urganch tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		2-sonli umumta’lim maktabi
	Xonqa tumani	27-sonli umumta’lim maktabi
		35-sonli umumta’lim maktabi
	Xiva tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		42-sonli umumta’lim maktabi
	Hazorasp tumani	25-sonli umumta’lim maktabi
		23-sonli umumta’lim maktabi
	Shovot tumani	35-sonli umumta’lim maktabi
		14-sonli umumta’lim maktabi
	Yangiariq tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		31-sonli umumta’lim maktabi
	Yangibozor tumani	1-sonli umumta’lim maktabi
		32-sonli umumta’lim maktabi

	Tuproqqal'a tuman	18-sonli umumta'lim maktabi
		20-sonli umumta'lim maktabi
Toshkent shahar		
	Bektemir tumani	289-sonli umumta'lim maktabi
		293-sonli umumta'lim maktabi
	Mirzo Ulug'bek	148-sonli umumta'lim maktabi
		121-sonli umumta'lim maktabi
	Mirobod tumani	94-sonli umumta'lim maktabi
		328-sonli umumta'lim maktabi
	Sergeli tuman	7-sonli umumta'lim maktabi
		317-sonli umumta'lim maktabi
	Chilonzor tumani	101-sonli umumta'lim maktabi
		179-sonli umumta'lim maktabi
	Chilonzor tumani	164-sonli umumta'lim maktabi
		232-sonli umumta'lim maktabi
	Olmazor tumani	134-sonli umumta'lim maktabi
		298-sonli umumta'lim maktabi
	Yakkasaroy tumani	73-sonli umumta'lim maktabi
		319-sonli umumta'lim maktabi
	Yunusobod tumani	5-sonli umumta'lim maktabi
		70-sonli umumta'lim maktabi
	Yangihayot tumani	32-sonli umumta'lim maktabi
		304-sonli umumta'lim maktabi
	Uchtepa tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
		116-sonli umumta'lim maktabi
	Shayxontohur tumani	41-sonli umumta'lim maktabi
		254-sonli umumta'lim maktabi

	Yashnobod tumani	23-sonli umumta'lim maktabi
		226-sonli umumta'lim maktabi

Izoh: Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan umumta'lim maktablari ro'yxatiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimi tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 10-bandi ijrosini ta’minlash, shuningdek, faoliyati tugatilgan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining mol-mulklari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R. Musurmonov)ga:

10-sentabrga qadar faoliyati tugatilgan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan “test.tdi.uz”, “pedkadr.tdi.uz” va “onaks.tdi.uz” axborot tizimlari (keyingi o‘rinlarda - axborot tizimlari)ni o‘rnatilgan tartibda qabul qilish;

Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan kelishgan holda axborot tizimlarini “Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestri”da Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga o‘tkazish;

axborot tizimlarining konsepsiya loyihasi va texnik topshiriqlarini 2024-yil 30-martga qadar Raqamli texnologiyalar vazirligidan ekspertizadan o‘tkazish;

2024-yil 1-iyulga qadar axborot tizimlarining axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan “Kiberxavfsizlik markazi” DUKda ekspertizadan o‘tkazish choralarini ko‘rish;

Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi (F. Mirbabayev) bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar axborot tizimlarining konsepsiya loyihasi va texnik topshiriqlarini ishlab chiqish hamda axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash uchun mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha taklif kiritish vazifalari yuklatilsin.

2. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S. Radjabov) departamentga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yuqorida ko‘rsatilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo’yicha mas’ul etib belgilansin.

3. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga yetkazsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U. Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
275-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Shahodatnoma blankalarini hisobdan chiqarish to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilari uchun elektron shahodatnoma joriy etilganligi va shahodatnoma dublikatini berish bo‘yicha elektron davlat xizmatlari yo‘lga qo‘yilganligi, elektron shahodatnomalarning yangi davlat namunasi tasdiqlanganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2000-yil 25-iyuldagi 283-son qaroriga muvofiq eski namunadagi shahodatnomalarni hisobdan chiqarish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi balansidagi 2023-yilga qadar chop etilgan shahodatnoma va sertifikat (keyingi o‘rinlarda - shahodatnoma) blankalari belgilangan tartibda hisobdan chiqarilsin.

2. 2023-yilga qadar chop etilgan shahodatnoma blankalari ro‘yxatini aniqlashtirish, hisobdan chiqarish va yo‘q qilish bo‘yicha vazirlik komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - komissiya) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiya (E. Murodov)ga bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida” 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qaroriga asosan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasi tasdiqlanganligi munosabati bilan 2023-yilgacha bo‘lgan eski namunadagi shahodatnoma blankalarini sanash, yo‘q qilish hamda yo‘q qilinganlik to‘g‘risida dalolatnoma tuzish vazifasi topshirilsin.

4. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi bosh hisobchisi (F.Jamuratova) komissiya dalolatnomasi asosida yo‘q qilingan blankalarni belgilangan tartibda hisobdan chiqarsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh,
2023-yil 29-avgust,
276-son

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O'zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro'yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to'liq, o'zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog'oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© "Xalq ta'limi axborotnomasi", 2023.